

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

G'ULOMOV BOBIRJON QODIRXON O'G'LI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni aholi daromadlarini oshirishga ta'siri

Mutaxassislik: 5230100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi: _____ Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent R.B.Ismoilov «__» «_____» 2016 yil	Ilmiy rahbar: _____ K.o'q. M.Bekmirzaev «__» «_____» 2016 yil
Fakul'tet dekani: _____ i.f.n. dotsent K.J.Matkarimov «__» «_____» 2016 yil	

Namangan-2016 yil

M U N D A R I J A

Kirish		3-6
I-bob.	Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlarini shakllanishining nazariy-uslubiy asoslari	7-36
1.1-§	Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos o'rni va tashkiliy-huquqiy asoslari	7-17
1.2-§	Aholi daromadlarining tarkibi, ularni samarali shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati	18-30
1.3-§	Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari va indikatorlari	31-36
II-bob.	Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlari va uni samarali shakllanishi tahlili	37-55
2.1-§.	Aholi daromadlarini shakllanishi hamda uni oshirishda davlatning roli va mexanizmlari	37-49
2.2-§.	Namangan viloyatida aholi daromadlarinining samarali shakllanishi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili..	50-55
III-bob.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi daromadlarini oshirishning asosiy yo'nalishlari	56-71
3.1-§.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish – aholi daromadlarini oshirishning muhim omilidir	56-60
3.2-§.	Aholi daromadlarini oshirish va turmush madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlari	61-71
	Xulosa va takliflar	72-75
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	76-78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakat hayotida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, aholining turmush tarzini yaxshilash va turmush madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga turmush darajasi - ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy siyosatda ikki asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: aholini ijtimoiy ta'minlash va davlat ijtimoiy kafolatlari. Shu o'rinda ijtimoiy ta'minlash sifatida: pensiya ta'minoti, nafaqalar bilan ta'minlash, aholining ayrim tabaqalari uchun belgalangan imtiyozlar va kompensatsiyalar tizimi va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni keltirish mumkin. Ikkinchi yo'nalish esa jamiyatning bir me'yorda rivojlanishini, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va sog'lomlashtirish, shuningdek, turarjoyga ega bo'lish huquqini ta'minlash bilan bog'liq.

Davlatning ijtimoiy siyosatida fuqarolarning jamg'armalariga bo'lgan munosabat ahamiyatlidir. Ayniqsa, bu bozor iqtisodiyoti shakllanishi davriga juda taaluqlidir. Umuman, normal iqtisodiyotda farovonlik o'sib jamg'armaning ham imkoniyatini oshiradi. Jamg'armalarni inflyatsiyadan saqlash, qadrini pasaytirmay, ayniqsa investitsiyada foydalanish samaradorligini ta'minlash, umumiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi.

Bozor iqtisodiyotida qatnashuvchilar faoliyati ma'lum darajadagi daromad olish, foyda olish bilan yakunlanadi. Albatta, bu sarmoya hajmi, faoliyat

samarasiga bog'liqdir. Daromad olish bozor munosabatlari ta'siriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida band bo'lganlarning daromadi, tijorat, talab va taklif muvozanati, raqobatning ta'siri kabilarga yoki umumiy ma'noda aytganda, korxona faoliyati natijasi va tadbirkorlarning foyda darajasiga bog'liq. Chunki, asosiy ishlovchilarning daromad darajasi korxona daromadiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda aholining turmush tarzini yanada yaxshilash, aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, turmush madaniyatini yuksaltirish masalalari nafaqat iqtisodiyotning o'sishi surhatlarini jadallashishida, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan masalalarni hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Bunga ko'p jihatdan xuquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotni mazkur sektori uchun qulayliklar yaratish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishiladi. Shu nuqtai nazardan hamda ushbu masala hozirgi vaqtda nihoyatda dolzarb bo'lganligidan bu mavzuni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida tanlab olindi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlardagi yetakchi iqtisodchi olimlar mazkur masala bo'yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Iqtisodchi olimlardan Yo.Abdullaev, S.G'ulomov, M.Sharifxo'jaev, A.O'lmasov, Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov, M.Rasulov, Q.Yahyoev, E.Maxmudov, Sh.Zaynitdinov, P.Tursunxodjaev, T.Shodiev, A.Ortiqov, Sh.Shodmonov, I.Mahkamov va boshqalar ushbu soha rivoji bo'yicha qator ilmiy ishlarni bajarganlar va ma'lum darajada iqtisodiy samaraga erishganlar. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va izlanishlarda mazkur masalaga ham katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, hozirgi iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi sharoitini hisobga olgan holda kam tadqiqotlar o'tkazilgan.

Muammoning hozirgi vaqtda dolzarbligini hisobga olib uni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida qabul qilindi hamda maqsad va vazifalar belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

BMI ning maqsadi hozirgi iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida aholi daromadlarini oshirishning manbaalari, ularning turlari va ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tuzishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviyda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining o'ziga xos o'рни va tashkiliy-huquqiy asoslarini nazariy jihatdan yoritib berish;
- Aholi daromadlarining tarkibi, ularni samarali shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyatini o'rganish;
- Bozor munosabatlari sharoitida aholi daromadlarining turlari va ularning manbalarini o'rganish;
- Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlari va uni oshirish ko'rsatkichlari hamda aholi daromadlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- Aholi daromadlarini shakllanishi hamda uni oshirishda davlatning roli va mexanizmlarini o'rganish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, jumladan oilaviy biznesni rivojlantirish – aholi daromadlarini oshirishning muhim omili ekanligini asoslash;
- Aholi daromadlarini oshirish va turmush madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda Namangan viloyati aholisi daromadlarining shakllanishi va undan samarali foydalanish muammolari hamda uni ko'paytirish yo'llari bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ob'ekti.

Namangan viloyati Davlat statistika bosh boshqarmasi bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari qilib Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'ruza va asarlarida bayon etilgan ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni amalda oshirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'llari va xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasi xukumiati tomonidan turli davrlarda chiqarilgan qarorlar, iqtisodchi olimlarning ushbu yo'nalishda amalga oshirgan ishlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida erishilgan ilg'or tajribalar olindi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I-bob. Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlarini shakllanishining nazariy-uslubiy asoslari

1.1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos o'rnini va tashkiliy-huquqiy asoslari

Kichik tadbirkorlik sektori turli mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muhim vazifani bajarmoqda. Birinchidan, ushbu sektor bozor sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlaydi, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz, yuksak samaradorlikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, u iste'molchilik sohasida vujudga keladigan «tuynukni» tezda to'ldirishga qodir bo'libgina qolmay, eng zamonaviy mashina - uskunalar va texnologiyadan foydalanib, sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qoplay oladi. Uchinchidan, mayda biznes bozor uchun zarur bo'lgan raqobatchilik muhitini, tez paydo bo'lib, yo'qolib yetadigan turli xil shakllarni yaratib beradi, u bir zumda o'zgarib turadigan bozor talabiga javob berishga tayyor bo'lish qobiliyatiga ega. To'rtinchidan, aytidan bu eng muhimi bo'lsa kerak, - u shunday tadbirkorlik muhiti va ruhini yaratadiki, eng avvalo ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy manfaatdorligi va tashabbusi asosiga ko'rilgan birorta ham bozor iqtisodiyoti bularsiz kun ko'ra olmaydi.

Shunday qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va u bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasining muhim va tarkibiy unsurini tashkil etadi. Buni rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda allaqachon tushunib yetishgan. Shuning uchun ham iqtisodiyotda kichik biznesga muhim o'rin ajratilib, davlat tomonidan jiddiy madad ko'rsatilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ilmiy - texnika taraqqiyotini jadallashtirish, sanoatning ilg'or tarmoqlarida yangi texnologiyalarga o'tish sharoitida o'z o'rnini topdi. Bunday tadbirkorlik yangi axborot texnologiyalari bilan, yangi g'oyalar va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bilan ishlashni

ta'minlovchi butun tizimning uzviy unsurini tashkil etadi. Kichik korxonalar tavakkalchilik oshgan sharoitda ishlab chiqarishning maqbul shakli hamdir.

Jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes allaqachon iqtisodiyotda asosiy mavqelarni egallagan. Masalan AQShda 19 millionta turli mustaqil firmalarning 90 foizdan ortig'i mayda korxonalardir. Yaponiyada o'rta va kichik korxonalar jumlasiga kiradigan 10 millionta mustaqil kompaniyaning 99 foizi kichik biznes sektoriga kiradi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan qator mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda ham bozorga o'tish bosqichining o'zidayoq tadbirkorlikni davlat tomonidan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy maqsadi ham davlat davlat hamda mahalliy boshqaruv darajalarida zarur huquqiy xo'jalik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy va ijtimoiy, psixologik shart-sharoitlar va mexanizmlarni barpo etishdan iborat bo'lishi lozim.

Barcha yangi mustaqil davlatlarda islohotlardan oldingi davrda mulkchilikning davlat shakli ustunlik qilgan. Xo'jalikning davlat sektorida mehnatkashlar umumiy sonining 4/5 qismi, kooperativlarda 14-15% (bulardan yarmidan ko'pi kolxozlarda), xususiy sektorda 3% ga yaqini band bo'lgan. 80-yillarning ikkinchi yarimida xo'jalikning kooperativ sektorini yaratish ijarani rivojlantirishga xarakat qilingan. Bu xarakat bozor infratuzilmasini rivojlanmaganligi davlat mulkchiligining hukmronligi, xo'jalik yuritishning yangicha shakllarini davlat sektoriga qaramligi, xo'jalik qonunlarining noaniqligi va bir qator sabablar tufayli natijasiz bo'lgan.

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy islohotlarning yetakchi bo'g'inidir. Xususiylashtirish natijasida demokratik jamiyatning ijtimoiy zaminini tashkil qiluvchi xususiy mulkchilik qatlami shakllanib bordi.

“Biznes” - soʻzi inglizcha soʻz boʻlib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha soʻz bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish boʻyicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha taʼrif berilgan: “Tadbirkorlik-mulkchilik subʼektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat koʻrsatishdir”.

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

Birinchidan, tadbirkorlikning subʼekti kim boʻlishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasida tadbirkorlik toʻgʻrisidagi qonunga muvofiq balogʻat yoshiga yetgan har bir fuqaro oʻz mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida oʻz ixtiyor etgan qonunga zid boʻlmagan faoliyat turi bilan shugʻullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqoridagi taʼrifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan boʻlib, u mazmunan boy, xilma xil koʻrinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish boʻlmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruhini alohida koʻrsatish mumkin:

- yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shugʻullanadi.
- tovar ishlab chikarishni tashkil etish bilan shugullanuvchi tadbirkorlar.
- tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shugullanuvchi tadbirkorlar.

- Uchinchidan, maqsad jixatidan tadbirkorlikning ikki turini:
 - a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;
 - b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muxofazasi, yosh avlod tarbiyasi, soglikni saklash) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- Shug'ullanayotgan soha bo'yicha ilm, bilimga egaligi.
- Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati.
- Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.
- qonunlarga itoatkorligi.
- Innovatsiyachilikning faolligi.
- Maqsad sari intiluvchanlik.
- Tashkilotchilik.
- Tejamkor bo'lishi.
- O'z so'zining ustidan chiqish.
- Ruhiy poklik va halolligi.
- O'z jamoasi uchun kurashuvchanlik.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

- Mulk munosabatlarining uyg'unlashuvi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiy munosabatlar uch jihat bilan belgilanadi:

- egalik qilish, ya'ni mulk egasi sifatida mulkka to'la hukmronlik qilish, sotish, ijaraga berish, hadya etish, foydalanib turish, ya'ni mulk egasining nazorati asosida ma'lum shart va to'lov evaziga mulkdan vaktincha foydalanish;

- operativ tezkor boshqarishni, yangi mulk egasining nazorati ostida resruslarni taqsimlash va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha mulkni boshqarish huquqini joriy etish.

- Tadbirkorlarga o'z qobiliyatini to'la namoyon etish uchun iqtisodiy erkinliklarning berilishi.

- mahsulot assortimenti turlarini va ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi;

- hamkorlarni mustaqil tanlash;
- mablag'larni qonunga zid bo'lmagan sohalarga mustaqil sarflash erkinligi va x.k.;

- Bozorning ochiqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ish kuchi, xom ashyo harakati uchun sun'iy g'oyalarning yo'qligi.

- Bozor infratuzilmasining mavjudligi.

- Tadbirkorlik uchun huquqiy kafolatning mavjudligi, ya'ni tadbirkorlikni himoyalovchi qonunchilikning mavjudligi.

- Yangi korxonalarga kadrlar tayyorlash, kredit olish, soliq to'lash, tabiiy boyliklardan foydalanish buyicha davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va x.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ko'rsatilishicha: xususiy tadbirkorlik, kichik va urta biznesni rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalarni bevosita olib kirish uchun makbul sharoit yaratish maqsadida;

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari quyidagicha belgilangan:

- mulk shaklidan qat'iy nazar ishlab chikarish, ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chikarish sohalarida 100 nafardan, kichik tadbirkorlik korxonalari bo'lib hisoblanadi;

- mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa korxonalarining ishchi va xizmatchilarini soni 100 nafardan oshgan tadbirkorlik korxonalari yirik korxonalar hisoblanadilar.

Hozirda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy sarmoyalarni olib kirish uchun mikrofirmalar, kichik korxonalar va korxonalar tashkil etilib, maqbul sharoitlar yaratilmokda.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvatlash yuzasidan qator farmon hamda qarorlar qabul qilingan. Buning natijasida tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga

olish, ularning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash hamda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishga shart-sharoit yaratish bo'yicha muayyan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallashtirish hamda uning yanada rivojlanishi uchun tegishli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 24 yanvardagi Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Unga binoan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy sharoit yaratish, ularni moliyaviy, moddiy-texnikaviy resurslar bilan ta'minlash, tadbirkor va xorijiy investorlar manfaatlari hamda huquqlarini muhofaza qilish uchun iqtisodiy-huquqiy asoslarni mustahkamlash vazifasi belgilangan .

Xususiy tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun yetarli huquqiy, iqtisodiy sharoitni vujudga keltirish maqsadida 2003 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmini osonlashtirish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» 2003 yil 20 avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda rozilik beruvchi tashkilotlar soni keskin qisqartirildi. Ularni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan tashkilot, ya'ni tuman (shahar) hokimliklari huzurida Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiylari tashkil etildi. Respublika bo'yicha tashkil etilgan 210 ta inspeksiya 2003 yil 1 oktyabrdan o'z faoliyatini boshladi. Ular tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish bilan bir vaqtda ularni soliq va statistika organlari hisobiga qo'yishadi, shtamp va muhr tayyorlashga ruxsat beradi, injenerlik kommunikatsiyalari, ya'ni gaz, energiya, suv, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, telefon aloqasiga qo'shilishga hamda uy-joyini korxona uchun ob'ektga aylantirishga, tadbirkorlik ob'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilishga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Biznesni boshlashga imkon yaratuvchi, ro'yxatga olish, undan keyingi jarayonlarni yanada soddalashtirish va yengillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 mayda qabul qilgan "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish bo'yicha xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan reglamenti, aniq muddat va daqiqa (soat)lari ko'rsatilgan sxemasi amalga oshirilmoqda. Ro'yxatdan o'tish muddati 7 ish kunidan 2 ish kuniga qisqartirildi.

Shuningdek, ruxsat berish bilan bog'liq ko'pgina jarayonlar takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 sentyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish taomillari turlarini qisqartirish va soddalashtirish to'g'risida"gi Qaroriga binoan, 12 ta bir-birini qaytaruvchi, ortiqcha ruxsatnoma va kelishuvlar bekor qilindi.

Endilikda tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatdan o'tganidan keyingi faoliyatini tartibga solishga doir huquqiy asosni takomillashtirish, O'zstandart, O'zgeodezkadastr va shu kabi tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan munosabatlarni tartibga solish, bajarilgan ishlar uchun to'lovlar miqdorini kamaytirish hamda qat'iy shkalasini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi va uning joylardagi bo'linmalari tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari, ularning monitoringini yuritishlari hamda yuzaga kelgan muammolarning sabablarini aniqlab, ularni hal qilish uchun tegishli huquqiy, me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqib, hukumatga yoki Ishbilarmon tadbirkorlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining Oliy Majlisdagi fraktsiyasiga taqdim etishlari maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, erkin tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratish maqsadida tadbirkorlik korxonalari rahbarlarining huquqshunos maslahatchilari, advokatlari ham bo'lishini ta'minlash, ularning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga o'rgatadigan, huquqiy bilim hamda malakalarini oshirishlari uchun o'quv markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, «Tadbirkor ayol» uyushmasining joylardagi bo'linmalarida advokatlar shtatini tashkil etish hamda ularga a'zo tadbirkorlarga imtiyozli narxlarda xizmat ko'rsatishlarini ta'minlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bank xizmatini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

— tadbirkorlik sub'ektlarining hisob raqamidan turli to'lovlar uchun ruxsatsiz pulni chigirib olishni qat'iyan man etish. Har qanday to'lovlar uchun pul o'tkazish faqat uning egasining ruxsati yoki sud qarori bilan amalga oshirilishi kerak;

— tadbirkorlarga ular bankda ochgan hamma hisob raqamidan qonunda man qilinmagan istalgan turdagi to'lovlar uchun foydalanishga ruxsat berish;

— tadbirkorlik sub'ektlari o'z mablag'idan xo'jalik faoliyatida naqd pul yoki pul o'tkazish ko'rinishida teng foydalanishga imkon beruvchi tartib o'rnatilishi lozim. Naqd pulsiz operatsiyalar o'tkazishning afzalligini ta'minlovchi tizim va tartib shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir;

— tijorat banklari o'z mijozlari haqida soliqqa tortish idoralariga ma'lumot yetkazishdan ozod qilinishlari lozim. To'lanmagan soliq va biror ish yuzasidan tekshiruv olib borilayotgan ishlar bundan mustasno bo'lishi kerak;

— mikrokreditlash ustuvor ravishda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun berilishi kerak. Ana shunda ular yordam oluvchilardan o'zini o'zi boquvchi va soliq to'lovchiga aylanadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun muhim muammolardan biri moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanish hisoblanadi. Hozirgi davrda ularni moddiy

xom ashyo resurslari bilan ta'minlashda tovar xom ashyo birjasi, ulgurji savdo tashkilotlarining roli ortib bormoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish — ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu borada Prezident I.A.Karimov “Bizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizda kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana bir bor takrorlashning hojati yo'q, deb o'ylayman. Faqat e'tiboringizni shunga qaratmoqchimanki, kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi”.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kichik biznes sub'ektlari – korxona ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar. Respublikamizda kichik biznes sub'ektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – alohida fuqarolar tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyati.

Mikrofirma – kichik biznes sub'ektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20

kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Kichik korxona – kichik biznes sub'ektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining, xususan, qishloq joylardagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, yangicha fikrlaydigan yoshlarning ishtirok etishini ta'minlash barchamizning birinchi navbatdagi vazifamiz hisoblanadi. Chunki:

- 1) bugungi kunda O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'ini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi;
- 2) bugungi yoshlar – ertangi kunimizning, kelajagimizning bunyodkorlaridir;
- 3) bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra tavakkalchilik, harakatchanlik, ishbilarmonlik kabi sifatlarni taqozo etadiki, ularning aksariyati ko'pincha yoshlarda mujassamlashgan bo'ladi;
- 4) inson mehnatining sermahsulligi darajasi, uning yaratuvchanlik qobiliyati yoshlik davrida nisbatan yuqori bo'ladi.

Jamiyatimizda ko'p ukkladli iqtisodiyotning shakllanishi va xususiy tadbirkorlik sektorining vujudga kelishi yoshlarning erkin kasb tanlash, istagan

faoliyat turi bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Ayniqsa, ularning iqtisodiyotdagi sog'lom raqobatning manbai sifatidagi kichik korxonalarni tashkil etishdagi roli bu borada ulkan salohiyat hisoblanadi.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik yoshlarimizning iqtisodiy faollik, tadbirkorlikni amalga oshirish borasidagi huquqiy va iqtisodiy bilimlari yetarli bo'lmayapti. Ba'zida bu faoliyatga intilish bo'lgani bilan, ma'lum maslahatlar, yo'l-yo'riq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida taqchilliklar sezilmoqda. Shunga ko'ra, fikrimizcha, mamlakatimizdagi yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi:

1. Maktablar, o'rta-maxsus bilim yurtlari hamda oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy va huquqiy ta'lim berishni yanada kuchaytirish.
2. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yoshlarning ijodiy markazlari, konstruktorlik va texnologik byurolari, ilmiy g'oyalarning amaliy tatbiqini yo'lga qo'yuvchi bo'linmalarni tashkil etish.
3. Respublikadagi yoshlar bilan shug'ullanuvchi muassasalar, jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot organlarining o'z maqsad yo'nalishidan kelib chiqqan holda faoliyatlarini jonlantirish.
4. Mamlakatimizdagi korxonalarning o'quv yurtlaridagi bo'lg'usi mutaxassislar bilan o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish.
5. Korxonalarda yoshlarning o'z ijodiy va ichki imkoniyatlarini to'liq namoyish eta olishlari, moddiy, madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondira olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.


Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi hissalarini yanada oshirishda, ularning milliy mafkura hamda umumxalq manfaatlarining faol kurashchisiga aylanishida muhim omil vazifasini bajaradi.

1.2. Aholi daromadlarining tarkibi, ularni samarali shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "tur mush darajasi", "xalq farovonligi", "tur mush faoliyati xavfsizligi", "tur mush tarzi", "mehnat faoliyati sifati", "tur mush sifati" kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Bahzan turli atamalar bir mazmunni anglat sa, boshqa hollarda ular o'rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini qayd etish lozim.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan "tur mush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq tur mush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga tur mush darajasi - ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Tur mush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Ammo ish haqi miqdori ham, tur mush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-mahrifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyatga bog'liq (1.2.1-rasm).

70-80-yillarda "tur mush tarzi" tushunchasi keng qo'llanilgan. Bunda hayot faoliyatining sifat ko'rsatkichlari "tur mush tarzi", miqdor ko'rsatkichlari esa "tur mush darajasi" bilan ifodalangan. Shuningdek, aholining tur mush darajasini xarakterlovchi boshqa atamalar va tushunchalar mavjud. Tur mush darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: tur mush darajasi - bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Bunday talqin tur mush darajasining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yanada to'liqroq ifodalashga imkon yaratadi.



1.2.1-rasm. Aholi ehtiyojlari va turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Turmush darajasi inson (aholi) hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasini to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darajasi kontseptsiyasi bilan uzviy bog'liq. Ayrim muhim ko'rsatkichlar 1.2.1-jadvalda keltirilgan.

1.2.1-jadval.

Turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari

Hajmiy (absolyut)	Ulush (o'rtacha)
Milliy daromad hajmi	Iste'mol fondining milliy daromaddagi ulushi
Aholining nominal daromadlari	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromad
Ish haqi fondi	O'rtacha va eng kam ish haqi
Tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tadbirkorlikdan olinadigan o'rtacha daromad
Pensiya fondlari hajmi	Pensiyaning o'rtacha va eng kam miqdorlari
Tovar aylanishi hajmi	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tovar aylanishi
Bajarilgan xizmatlar hajmi	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar salmog'i
Uy-joy fondining hajmi	Bir kishiga to'g'ri keladigan uy-joy hajmi (kv.m., xona)
Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholining soni	Iqtisodiy faol aholi tarkibida bandlar va ishsizlar salmog'i
Aholining jamg'armalari	Jamg'armaning o'rtacha miqdori
Aholining tabiiy ko'payishi	Yashash davri

Manba: Bakieva I.A. "Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti" ma'ruzalar matni. Toshkent – 2013

Ko'rsatkichlar alohida belgilar bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi: umumiy va xususiy; iqtisodiy va ijtimoiy-demografik; ob'ektiv va sub'ektiv; qiymat va natural; miqdor va sifat; iste'mol proporsiyasi va tarkibi ko'rsatkichlari; statistik ko'rsatkichlar va boshqalar.

Turmush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy turlarga ajratiladi. Umumiy ko'rsatkichlarga:

- 1) milliy daromad;
- 2) iste'mol fondi (iqtisodiyot tarmoqlarining bevosita iste'molga yo'naltirilgan mahsulotlari);
- 3) milliy boyliklar iste'mol fondi (to'plangan iste'mol mulklari – turar joylar, madaniy-maishiy binolar, buyumlar) kabilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy darajasini ifodalaydi.

Xususiy ko'rsatkichlardan:

- 1) iste'mol darajasi va usullari;
- 2) mehnat sharoitlari;
- 3) turar joy ta'minoti va maishiy qulayliklar;
- 4) ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;
- 5) bolalarni tarbiyalash sharoitlari; 6) ijtimoiy ta'minot va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq, ammo aholi (mexnatkashlar)ning ma'lum guruhlari, hudud va boshqalar bo'yicha aniqlashtirilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar inson va jamiyat hayotining iqtisodiy jihatlarini, ehtiyojni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va har bir insonning farovonligi (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlar sirasiga kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchini (aholini) takror ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning iqtisodiy asoslarini ochib beradi. Bu, ayniqsa, aholi daromadlari salmog'i va ularni differentsiatsiyalashda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining yoshi, jinsi, kasbiy-malakaviy tarkibini, ishchi kuchini jismoniy takror ishlab chiqarishni ifodalaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi va ijtimoiy soha, umuman, iqtisodiyot taraqqiyoti bilan mustahkam aloqada. Bu omillar aholishunoslikning tabiiy asoslari, ya'ni aholi, uning ayrim guruhlari sonining o'zgarishi, umr ko'rish davri haqida tasavvur hosil qiladi.

Ko'rsatkichlarning ob'ektiv va sub'ektiv turlarga bo'linishi insonlar hayot faoliyatidagi o'zgarishlarni asoslash zarurati bilan izohlanadi. Ob'ektiv ko'rsatkichlar ob'ektiv (iqtisodiy, texnik va hokazo) bazaga ega bo'lsa, sub'ektiv ko'rsatkichlar aholi guruhlari yoki alohida shaxslarning mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, ish, turmush tarzi va shu kabilardan qoniqishi bo'yicha hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar. Qiymat ko'rsatkichlari barcha daromad ko'rsatkichlari va pul ko'rinishidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, tashishlar, pul jamg'armalari va qo'yilmalari va hokazolarning hajmi)ni o'z ichiga oladi.

Natural ko'rsatkichlar natural birliklarda (dona, kv.m., kub m. va hokazolar) o'lchanadigan muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari, energiya iste'moli, mol-mulk, turar joylar, madaniy-maishiy tovarlar ta'minotining hajmini ifodalaydi.

Turmush darajasini ifodalashda miqdor va sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Miqdor ko'rsatkichlari muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'mol hajmini aniqlaydi. Sifat ko'rsatkichlari esa aholi farovonligini sifat jihatdan baholash imkonini beradi. Ular moddiy ne'matlar, xizmatlar iste'mol tarkibi, ovqatlanish, ma'lumot, malaka, uzoq muddatga muljallangan ijtimoiy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganlik darajasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Aholi farovonligi proportsiyasi va taqsimot tarkibining (aholi qatlamlarini daromadlar bo'yicha taqsimlanishi, daromadlar va iste'molni kontsentratsiyalash hamda differentsiatsiyalash ko'rsatkichlari va boshqalar) ifodalovchi ko'rsatkichlarni mustaqil ko'rsatkichlar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Statistik ko'rsatkichlar. Statistik ko'rsatkichlar turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimida muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ilgari qabul qilingan tasnifdan foydalanish deyarli mumkin emas, chunki sho'rolar davrida tarkib topgan 280dan ortiq ko'rsatkichni baholash juda murakkab va shu bilan birga so'nggi yillarda ijtimoiy taraqqiyotning yunalishlari, hisob yuritish va hisobot amaliyoti tub o'zgarishlarga yuz tutdi va mamlakatda milliy manfaatlarni himoya qiluvchi iqtisodiy omillar muhim o'rin tutadi.

Hozirgi paytda yuzaga kelgan sharoitlarni hisobga olib, bozor iqtisodi sharoitlariga muvofiqlashtirilgan quyidagi yangi ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi:

- 1) umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (ichki yalpi mahsulot, iste'mol fondi, turmush qiymati iideksi va boshqalar);
- 2) aholi daromadlari;
- 3) aholi iste'moli va xarajatlari;
- 4) aholining pul jamg'armalari;
- 5) jamg'arilgan mol-mulklar va turar joylar;
- 6) aholining ijtimoiy tabaqalanishi;
- 7) aholining kam ta'minlangan tabaqalari.

Bu tizim ham kamchiliklardan butunlay xoli bo'lmasada, u sho'rolar davrida foydalanilgan tasnifga qaraganda ixcham, hisob yuritish uchun qulay va turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Iqtisodiyotda bir-biriga bog'liq bo'lgan munosabatlar borki, ularni hal qilmasdan mamlakatning farovonligini oshirish mumkin emas. Shular qatorida:

- aholi daromadlarining pasayishi;
- ishsizlikning paydo bo'lishi;
- inflyatsiya va hokazo.

Hozirgi davrda O'zbekistonda korxonalarning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarilgan. Lekin asosiy daromad keltiruvchi manbalar davlat qo'lida. Murakkab va ko'p xarajatlar talab qiladigan tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat sektorining

ahamiyati kuchaya boradi. Soliq tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, daromadi ko'p bo'lgan korxonalardan yuqori soliq undirilib, kam rivojlanayotgan sohalarni oyoqqa turg'azish zarurati paydo bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning O'zbekiston modeliga muvofiq ichki bozorda tovarlar narxi va xizmatlar tarixi boshqa hamdo'stlik mamlakatlaridagi singari birdaniga erkinlashtirilmadi, bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1991 yilning ikkinchi yarmidan 1994 yil iyul oyigacha, ya'ni milliy valyuta kiritilgunga qadar, yumshoq pul-kredit va byudjet siyosati zaminida daromadni shakllash sohasida liberal siyosat amalga oshirilgan davrni o'z ichiga oladi. Daromadlar siyosati nuqtai nazaridan birinchi-bosqich quyidagi asosiy xususiyatlar bilan belgilanadi:

- aholi pul daromadlari ustidan zaif nazorat;
- aholi yalpi daromadlarida iste'mol subsidiyalarining salmoqli vazni;
- fuqarolar tomorqa maydonlarining kengayishi hisobiga aholi natural daromadlari yangi manbalarining shakllanishi;
- norentabel ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlarni «avaylab» olib chiqish hisobiga rasmiy ishsizlik darajasini sekin o'sish hamda «Bankrotlik to'g'risida» qabul qilingan Qonunning samarali ta'sir o'tkazmasligi.

Ikkinchi bosqichda – 1994-1996 yillar mobaynida, qathiyroq pul-kredit va byudjet siyosati qo'llanila boshlaganida, daromadlar siyosati ham o'zgarishlarga duch keldi.

Daromadlar siyosatining mazkur bosqichini izchil o'tkazish natijasida 1996 yilga kelib quyidagilarga erishildi:

- aholi pul va yalpi daromadlarining o'sishi boshlandi;
- daromad shakllanishi manbalari tarkibida ishbilarmonlik faoliyati, mulkchilik, shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish va boshqa daromadlar ulushi ko'tarildi.

Ishlab chiqarishning pasayishi, amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni qayta shakllantirish, yashirin ishsizlikning o'sishi aholi qo'lidagi real daromadlarga ta'sir etdi va ular 1991-1995 yillar mobaynida amalda ikki baravarga pasaydi. Ayniqsa real daromadlarining pasayishi byudjet hisobidan yashayotgan aholida namoyon bo'ldi.

Chunki byudjet sohasida sobit daromadlariga soliq solish osonroq bo'lib, yangidan paydo bo'layotgan xususiy sektorda odamlar ish haqiga soliq solish qiyinroq ko'chadi. Shuning uchun soliqning asosiy og'irligi aholining sobit daromadli qatlamlariga tushadi.

Ayni paytda xilma-xil ishbilarmonlik faoliyati turlaridan olinadigan daromadlar o'sdi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan foyda ko'paydi. Aholi daromadlarining ortishi ish bilan bandlik oshishiga olib keldi. Masalan, hozirgi kunga kelib aholi ish bilan bandligining mintaqaviy dasturlari asosida qishloq joylarda yashovchilarning

Aholining tadbirkorlik va xususiy mehnat faoliyati sohasida ishlashdan olayotgan daromadlari ortayotganligi tamoyiliga ijobiy baho bergan holda, ish haqining rag'batlantiruvchilik roli pasayib borayotganligi tamoyilini ham qayd qilish kerak. Bu esa aholini soliqqa tortilishdan bekitiqcha ikkinchi va uchinchi daromad manbalarini qidirib topishga undaydi. Bundan tashqari, ish haqining unumsiz darajasi ishlab chiqaruvchilar mehnatini, ijodiy mehnatni rag'batlantirmaydi va uning sifati tobora pastlashiga olib keladi. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida o'rtacha ish haqi darajasining pastligi ayniqsa tashvishlanarlidir, zero bu hol ta'lim muassasalarida o'qitish-o'rgatishning va davlat shifoxonalarida davolash sifatining pastligiga sabab bo'ladi.

Oilalarning umumiy daromadi shakllanishida shaxsiy tomorqa xo'jaliklari daromadi hissasining ortishi davom etmoqda.

Tomorqa ilgari mavjud bo'lgan bozor xo'jaligidir. Avvallari ham u erkin ishlovchi xo'jalik uchun muhim daromad manbai hisoblangan, oziq-ovqat ta'minotiga o'z hissasini qo'shgan, dehqon bozorini to'ldirgan, hatto chetga mahsulot chiqarishda qatnashgan. Tomorqa mayda tovar xo'jaligi sifatida bozor iqtisodiyoti talablariga mos tushadi.

Aholi daromadlari - bu aholi yoki uning oila ahzolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab chiqarilgan pul va natural mablag'lar yig'indisidir. Inson

hayotida aholining talab-ehtiyojlar darajasi va tarkibi daromadlarning bevosita miqdoriga bog'liqdir.

Daromadlar darajasini tahlil etish, o'lchash va taxmin qilish uchun daromadlarning har-xil turlari va ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ana shuning uchun ham ulardan eng ko'p tarqalgan turlarini ko'rib chiqishimiz zarur.

Daromadlar pul va natural shakllari. Aholining pul daromadlari mehnatkashlar uchun ish haqi hisobidagi barcha pul mablag'lari tushumi; pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar; mulkdan foiz, dividendlar, renta ko'rinishidagi daromadlar; aktsiyalar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva hayvonlari, tomarqa xo'jaligi mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan pul tushumlari, turli xizmatlar ko'rsatish uchun haqlar va hokazolardan tashkil topadi.

Aholining natural daromadlari - qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari, bog'-qo'rg'on, sabzavot-poliz ekinlari uchastkasi, shaxsiy tomorqa, tabiat inhomlaridan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlardan iborat.

Pul va natural daromadlarning nisbati tez-tez o'zgarib turadi, ammo pul shakli ko'proq tarqalgan. Odatda, aholining kambag'al qatlamlarida natural daromadlar hissassi yuqori bo'ladi. Iqtisodiy vaziyat yomonlashgan davrda natural daromadlar salmog'i oshib ketadi, jamoa xo'jaliklari dehqonlarida natural daromadlar hissassi sanoat ishchilari natural daromadlari hissasiga nisbatan doimo yuqori bo'ladi, buni byudjet tadqiqotlari ham tasdiqlaydi.

Daromadlarning bir qismi moddiy farovonlikni ta'minlashga, boshqa qismi xizmatlardan foydalanish uchun sarflanadi. Ehtiyojlar tarkibiga pul daromadlarining oshishigina emas, balki aholi tarkibining o'zgarishi, uning ilmiy-madaniy saviyasi o'sishi ham ta'sir etadi.

Daromadlarni nominal, ixtiyordagi va real daromadlarga ajratiladi. Nominal daromadlar soliq, narxlarni hisobga olmagan holdagi pul daromadlari miqdorini tavsiflaydi. Ixtiyordagi daromadlar - bu soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobdan

chiqarilgandan keyin qolgan nominal daromadlardir. Demak, ular aholining jamg'arish va ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanadigan mablag'larini o'z ichiga oladi. Real Ixtiyordagi Daromadlar tariflar, baholar indeksini hisobga olgan holda hisoblanadi va nominal daromadlarning real xarid qobiliyatini ko'rsatadi. Real ixtiyordagi daromadlar quyidagicha hisoblanadi:

$$RID = (ND-ST)*J_{pxk}$$

Bunda: ND - nominal daromadlar (so'm);

ST - soliqlar, majburiy to'lovlar (so'm);

J_{pxk} - "pulning xarid qobiliyati indeksi (narxlar indeksiga teskari kursatkich).

Ish haqi, tadbirkorlik daromadlari, ijtimoiy transfertlar va boshqalar pul daromadlarining asosiy manbalaridir.

Ko'p yillar davomida ish haqi sifatida olingan daromadlar aholi daromadlarining asosiy manbasi vazifasini o'tagan. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida daromadlar salmog'ida ish haqining ulushi kamaydi va 1999 yilda 28,0 foizni tashkil etdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda mehnatga yarasha haq to'lash tamoyili buzilishining ob'ektiv sabablari mavjud, jumladan, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va daromadlar yangi manbalarining paydo bo'lishi (tadbirkorlik faoliyatidan va mulkdan olinadigan daromadlar). Bu qisqarish ijtimoiy transfertlar sifatida shakllanadigan daromadlar manbai bo'lgan ijtimoiy fondlarga mablag' ajratilishining kamayishiga olib keladi.

Nominal (ya'ni belgilangan) va real ish haqlarini ajratish lozim. Nominal ish haqi soliq va majburiy to'lovlar chegirilmagan ish haqi yig'indisidir. Ixtiyordagi ish haqi – bu, daromad solig'i va pensiya fondiga majburiy ajratmalar hisobdan chiqarib tashlangandan keyin qolgan ish haqi yig'indisidir. Real ish haqi – bu, soliq, narxlar va tariflarning o'zgarishini hisobga olgan holdagi nominal ish haqi, ya'ni nominal ish haqi hisobiga olish mumkin bo'lgan real moddiy boyliklardir. Masalan, nominal ish haqining 20 foizga, narxlarning esa 15 foizga o'sishi (soliqlar o'zgarmagan takdirda) Real ish haqining 4,3 foizga o'sishiga olib kelishi mumkin ($120:115*100q104,3$).

Real ish haqi quyidagicha aniqlanadi:

$$RIH = (NIH-SA)*J_{pxk}$$

bunda: Nominal ish haqi - nominal ish haqi (so'm);

SA – soliqlar, ish haqidan majburiy ajratmalar (so'm).

Foyda - ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar uchun qo'shimcha daromad manbaidir. Sof foyda hisobiga investitsiyalar, innovatsiyalardan olinadigan daromadlar, dividendlar, monopoliyalarning daromadlari, ba'zi ijtimoiy to'lovlar, imtiyozlar va hokazolar amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yangi manbai - tadbirkorlikdan keladigan daromadlar yoki tadbirkorlik daromadlari paydo bo'ladi. Bu daromadlar tadbirkor bajaradigan funktsiya uchun mukofotdir (ishni, kapitalni, tabiiy resurslarni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun yo'naltirish; firmani boshqarish, innovatsiyalarni kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish, tavakkalchilik bilan mablag' sarflash). Bu daromadlar tadbirkor tomonidan kredit uchun foiz to'langandan keyin qoladigan foyda hisobiga shakllanadi. O'zgaruvchan bu miqdor boshqarishning natijasiga bog'liq bo'ladi. Foyda qonuniy va noqonuniy, xo'jalikning samaradorligiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan tarzda yuzaga kelishi mumkin.

Aholi daromadlarining muhim manbasi ijtimoiy iste'mol fondlari bo'lib, iste'molni jamoa shakli orqali taqsimlash usulidir. Daromadlarning bu manbasiga, turli baholarga qaraganda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadning 1G'5 qismidan 1G'3 qismi to'g'ri keladi. Bunda ijtimoiy iste'mol fondlaridan to'lanadigan to'lovlar, xizmatlar, imtiyozlarning ikki xil shaklini ajratish mumkin: pulli va pulsiz shakllar.

Pulli shakldagi ko'plab mablag'lar pensiya ta'minoti (yosh, nogironlik, staj, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha), bolalar, ishsizlik nafaqalari to'lash va hokazolar uchun sarflanadi va ijtimoiy transfertlar deyiladi.

Ijtimoiy transfertlar - fuqarolarga (davlat byudjetidan yoki maxsus fondlardan) - ularning ish natijasi, tadbirkorlik faoliyati yoki shaxsiy mulkdan (pensiya, nafaqa,

stipendiya va hokazolar) olinadigan daromadlariga bog'liq bo'lmagan holda - to'lanadigan to'lovlardir.

Mehnat motivatsiyasida ish haqi va ijtimoiy transfertlarning nisbati muhim. Daromadlar tarkibida ish haqining ulushi ustun bo'lsa, faol mehnat, tadbirkorlik, tashabbus rivojlanadi, agar ijtimoiy transfertlar hissasi oshib ketsa, ko'pincha boqimandalik kayfiyati kuchayadi.

Shaxsiy (oilaviy) daromadlar miqdori yig'indisi pul daromadlari va natural daromatlardan tashkil topadi. Natural daromadlar shaxsiy tomorqa va uy xujaligidan olinadigan hamda aholining ta'lim, tibbiy xizmat va hokazolarni ta'minlovchi pulsiz daromad turlaridan vujudga keladi.

Shaxsiy tomorqa xo'jaligi shaxsiy va oilaviy daromadlarning shakllanishida muhim rolg' o'ynaydi.

Jamiyat rivojlanishining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy davrida shaxsiy tomorqa xo'jaligi aholining ba'zi guruhlari uchun asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

Oila byudjeti. Oila - qarindosh bo'lgan yoki boshqa xususiyatlari bilan bog'langan, birga yashayotgan va birgalikda xo'jalik yuritayotgan shaxslar jamoasidir. Keyingi yillarda oila iqtisodiyotiga qiziqish o'sdi. O'zbekistonda milliy hisob-kitob tizimiga o'tilishi munosabati bilan uy xo'jaligiga iqtisodiyotning muhim sub'ektlaridan biri sifatida qaralmoqda. Hozirgi sharoitda uy xo'jaligining umumiy daromadlarini o'lchash aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish, soliqqa tortish tizimini oqilona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uy xo'jaligi birga yashayotgan va umumiy byudjetga ega bo'lgan bir yoki bir necha shaxs tomonidan olib boriladi. Odatda, uy xo'jaligi ahzolar soni bo'yicha oila bilan mos keladi, ammo ba'zi holatlarda bir necha oilalar birgalikda uy xo'jaligi yuritishi mumkin.

"Uy xo'jaligi" atamasini turlicha ifodalash mumkin, masalan:

- oilani statistik belgilash;
- anhanaviy uy ishlari yig'indisining umumlashma nomi (bolalarga qarash, ovqat tayyorlash, kir yuvish, uy tozalash, oddiy tahmirlash ishlari va sh.k.);

- oilaning daromad-kategoriya, daromad-mulk va xarajat-iste'mol tavsiflarini o'z ichiga oluvchi statistik ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha.

Oilalar daromadlarining shakllanishi nuqtai nazaridan uy xo'jaligining quyidagi funktsiyalari muhim: 1) mehnat ishlab chiqarish funktsiyasi; 2) iqtisodiy nomehnat funktsiyalar (uy xo'jaligining umumiy daromadlari asosiy manbai).

Birinchisiga quyidagilar kiradi: yakka tartibdagi mehnat faoliyati, ya'ni uy sharoitida kiyim-bosh, poyabzal tikish, mebelg' yasash, maishiy xizmat ko'rsatish; agrar faoliyat, ya'ni yer, yer uchastkasining barcha turlaridan foydalanish; anhanaviy uy ishlari - ovqat tayyorlash, bolalarga qarash, kir yuvish, uy tozalash, kiyim, poyabzalni tahrirlash va sh.k.; yakka tartibdagi oilaviy savdo - ilgari to'plangan oilaviy mulkni sotish, turli tovarlarni olib-sotish.

Iqtisodiy nomehnat funktsiyalar: oilaviy lizing (uy, dala-hovli, yer, avtomobilg', qayiq kabilarni ijaraga berish va shu kabi); bo'sh turgan pullarga qimmatli qog'ozlar (veksellar, obligatsiyalar, aktsiyalar va sh.k.) sotib olish va foydalanish.

Oila daromadlarining asosiy qismi mehnatda, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishdan olinadigan daromad, ijtimoiy transfertlardan yuzaga keladi.

Oila byudjeti daromad va xarajat qismlarga bo'linadi Oilaning daromadlari va xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar oilaning turi (soni va ijtimoiy-demografik tarkibi, "ishlovchilar" va boqimandalarning o'zaro nisbati va shu kabilari), ish bilan bandlik xarakteri, olinadigan daromadlar darajasi, uy-joy, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganligi, turar joyi, joylashish xarakteri, istiqomat qiladigan hududi va hokazolar bilan bog'liq. Oila byudjetini tekshirish asosida ishchi va xizmatchilar, kolxozchilar va alohida pensionerlar oilalarining daromadlari yig'indisi hisoblab chiqiladi. Daromadlar yig'indisi tarkibiga ish haqi (jamoat xo'jaliklari a'zolariga haq to'lash), pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar va ijtimoiy iste'mol fondlaridan boshqa to'lovlar kiradi, jumladan, bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalarida, bolalar lagerlarida tarbiyalash uchun dotatsiyalar, shuningdek, sanatoriyalar, dam olish uylariga bepul va imtiyozli yo'llanmalar qiymati, shaxsiy tamorqa xo'jaligidan olinadigan daromadlar ham kiradi.

Bozor iqtisodiga o'tish yillarida oilalar umumiy daromadlari shaxsiy umumiy daromad va aholining yalpi daromadlari tarkibi o'zgarishlarga yuz tutadi va bu o'zgarishlar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

1) ish haqi daromadlarning asosiy qismini tashkil etadi, ammo uning salmog'i pasaymoqda;

2) Ijtimoiy Iste'mol Fondidan to'lovlar barcha daromadlarning taxminan 1G'6 qismini tashkil etadi va o'sib borishi kuzatilmoqda;

3) shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olinadigan daromadlar salmog'i oshib bormokda, aholi iste'mol muammosini o'z kuchi bilan hal etishga urinayotgan hozirgi murakkab iqtisodiy vaziyatda bu tabiiy holdir.

4) boshqa manbalar salmog'i oshib bormoqda va bu o'sishning davom etishi kutilmoqda;

5) bozor iqtisodiyoti sharoitida ishga layoqatli har bir inson o'z moddiy farovonligi uchun o'zi mahsuldir.

Oila byudjeti asosida oilaning iste'mol daromadi hisoblab chiqiladi, u umumiy daromadlardan farqli o'laroq, o'z mazmun-mohiyati jihatidan oilaning soliq va jamg'armalari chiqarib tashlangandan so'ng qolgan pul xarajatlariga to'g'ri keladi. Uning hajmi, miqdori xarajat turlariga qarab taqsimlanadi.

Oilaning umumiy daromadlarini tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

- ovqatlanish xarajatlari;
- nooziq-ovqatlarni sotib olish xarajatlari;
- maishiy xizmat, soliq, yig'imlar, to'lovlar xarajatlari;
- naqd pul, jamg'arma banklariga qo'yilgan jamg'armalar, chorva, parranda va boshqalar tabiiy ko'payishi natijasida jamg'armalarning oshishi.


Statistik amaliyotda, shuningdek, ta'lim olish, tibbiy xizmat qiymati va uy-joy uchun dotatsiyalar ham qo'shilgan umumiy daromadlar miqdori ham hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkichlardan, odatda, xalqaro tekshiruvlarda foydalaniladi.

1.3. Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari va indikatorlari

Daromadlar darajasini oshirish muammolarini hal etishda iste'mol byudjeti asosida aholini minimal daromad bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Iste'mol byudjeti moddiy va ma'naviy ne'matlar va xizmatlar iste'moli salmog'i va tarkibining qiymati bahosi hamda soliqlardan iborat. Ehtiyojni qondirish darajasiga qarab, moddiy ta'minlanganlik minimumi, ratsional va elitar iste'mol byudjetlari mavjud. Ular aholining quyi, o'rta va yuqori (juda yuqori) daromadli guruhlariga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, haqiqiy va me'yoriy byudjetlar ham mavjud, me'yoriy byudjetlar daromadlar siyosatining ijtimoiy normativlaridan biridir.

Iste'mol byudjeti faqat aholi guruhlariga uchun emas, balki mamlakat rayonlari uchun ham belgilanishi mumkin. Bunda hisob-kitobning turli xillaridan foydalaniladi: me'yoriy (tovar va xizmat iste'moli va ularning haqiqiy bahosi normativlari asosida); statistik (aholining ayrim qatlamlari ega bo'lgan real daromadlar darajasida); murakkab (ovqatlanish me'yorlari va amaliy xarajatlar asosida); sub'ektiv (ekspertlar so'rovi va jamoatchilik fikri asosida); resurs (aholining ma'lum iste'mol minimumini ta'minlash uchun davlatning ob'ektiv imkoniyatlari asosida). 1.3.1-rasmدا iste'mol byudjetining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro aloqadorligi aks ettirilgan.



1.3.1-rasm. Iste'mol byudjeti va uning eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro aloqasi

Moddiy ta'minlanganlik minimumi byudjeti joriy vaqt uchun va istiqbolga mo'ljallab tuzilishi mumkin. U natural va pul shaklida ifodalanadi. Mehnatkashlar va ularning oilalari minimal ehtiyojlari moddiy va madaniy ne'matlar iste'moli darajasi va tarkibi qanday bo'lishi bu minimumni ta'minlaydigan daromadlar miqdorini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ishchi kuchini (aholi) normal takror ishlab chiqarish uchun ishchining (xizmatchi, dehqon) oilasidagi balog'atga yetgan kishilarning energiya sarfini qoplash va qoniqarli hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan fiziologik me'yor darajasida ovqatlanishi hamda kiyim-bosh, poyabzal, ichki kiyimlar, gigiena vositalari bilan ta'minlanishi, kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati uchun haq to'lash, shuningdek, madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun minimal daromadga ega bo'lishi zarur.

Me'yoriy byudjetga asoslangan moddiy ta'minlanganlik minimumi ish haqini differentsiatsiyalashni prognozlashda (boshqarishda) asosiy elementlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ish haqining eng kam miqdori jamiyatda mavjud resurslarga bog'liq bo'lmasa, moddiy ta'minlanganlik minimumini ta'minlash uchun boshqa manbalardan foydalaniladi (ijtimoiy iste'mol fondi, shaxsiy tomorqa xo'jaligi va shu kabilar).

Me'yoriy iste'mol byudjeti yolg'iz kishilar va oilalilar uchun (son va yosh tarkibi turlicha bo'lgan), aholining turli guruhlari, oilaning ishlamaydigan ahzolari, mamlakatning turli xududlari uchun ishlab chiqiladi. Mamlakat rayonlari bo'yicha me'yoriy byudjetlar turmush qiymatidagi farqni aniqlash, rayon koeffitsientini asoslashga yordam beradi. Moddiy ta'minlanganlik minimumiga erishish yo'llarini asoslashda ularni qoplash manbalarini aniqlash katta ahamiyatga ega (eng kam ish haqi va pensiyalar, nominal va real ish haqini oshirish, ijtimoiy transfertlar, shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olinadigan daromadni ko'paytirish va shu kabilar). Biroq oilalarda ish bilan bandlar va boqimandalarning turli nisbatlari yuzaga keladi, bu esa oila ta'minlanishiga ta'sir etadi. Kam ta'minlanganlik muammosini hal etish uchun ish haqini muntazam oshirib borish, oilada bandlikni oshirish, pensiya ta'minotini yaxshilash, soliq bo'yicha imtiyozlar belgilash, tovar va xizmat haqlarini kamaytirish, bolalarni boqish uchun

davlat tomonidan beriladigan nafaqalar miqdorini ko'paytirish, yolg'iz qariyalarga ko'maklashish va shu kabilar lozim.

Oilaning yashash minimumini shakllantirishda yolg'iz kishilar va oilalilarning iste'mol xarajatlari darajasiga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Oiladagilar soni oshib borishi bilan iste'mol xarajatlari pasayib boradi. Masalan, agar ikki kishi birgalikda yashasa, ularning jon boshiga xarajatlari (kommunal xizmatning ba'zi turlari bo'yicha to'lovlardan tashqari) yolg'iz yashovchining xarajatlaridan ikki barobar kam bo'ladi. Bu uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan tovarlarga ham taalluqli. Buyumlar bir boladan boshqasiga o'tishi ham hisobga olinadi (ayniqsa, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarda). Shu munosabat bilan daromadlari turli darajada bo'lgan oilalarda birgalikda yashash evaziga xarajatlarning kamayishi koeffitsienti hisoblab chiqilgan. Masalan, balog'atga yetgan to'rtta odam yashaydigan oilada iste'mol xarajatlari 10 foizga kamayadi, oilada yashovchi pensioner uchun yashash minimumi yolg'iz pensionernikidan 10-15 foiz past.

Aholi ehtiyojiga tabiiy-iqlimiy sharoitlar, joylashish xarakteri, milliy anhanalar ham ta'sir ko'rsatadi. Nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar xarajati o'zoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanganlik va xizmat muddati me'yorlari asosidagi normativ usul yordamida aniqlanadi. Hisob-kitoblar tovarlar guruhi bo'yicha ishlab chiqiladi: garderoab predmetlari (ust kiyim, poyabzal va hokazolar), sanitariya-gigena vositalari, dori-darmonlar, uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan tovarlar (mebelg', elektr asboblari, avtomobilg' va hokazo).

Uy-joy va kommunal xizmat xarajatlari ushbu regiondagi narxlar va tarif normativlariga qarab belgilanadi. Bunda soliqlar va majburiy to'lovlar xarajatlari ham hisobga olinadi.

Oilaning yashash minimumi byudjeti uning tarkibi va katta-kichikligiga qarab aniqlanishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, yashash minimumi ancha tor tuzilgan, unda faqat fiziologik minimumni ta'minlovchi me'yordan foydalanilgan va tamaki mahsulotlari, delikateslar, madaniy ehtiyojlar hisobga kiritilmagan, nooziq-ovqat tovarlari, xizmatlar, soliqlar esa yetarli darajada hisobga olinmagan. Yashash

minimumidan farqli o'laroq, minimal iste'mol byudjeti ana shu xarajatlarni to'la hisobga oladi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, minimal iste'mol byudjeti yashash minimumi byudjetidan 3-4 baravar ortiq. Minimal iste'mol byudjeti va yashash minimumi byudjeti bilan birga ratsional iste'mol byudjeti ham hisoblanadi, uning yordamida ilmiy asoslangan ratsional me'yorlarga muvofiq ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan daromadning tarkibi va miqdori aniqlanadi. Ratsional byudjet va iste'molning ratsional me'yori insonning oqilona ehtiyojlarini to'la qondirish tamoyili asosiga quriladi. Iste'molni real me'yoriga muvofiq bo'lgan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasiga yetish mamlakat miqyosida o'rta tabaqani shakllantirish vazifasini hal etishga yordam beradi.

Barcha aholi uchun iste'molni ratsional darajaga yetkazish jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin: birinchisi - ratsional byudjetga mos keluvchi daromadni va iste'molni o'rtacha darajasiga yetish; ikkinchisi - jamiyat har bir ahzosining ratsional iste'molini ta'minlash. Bu ikki bosqichni farqlash iqtisodiy mazmunga ega. U daromadlar va iste'molning ba'zi elementlari harakati tendentsiyasidagi tub o'zgarishlar va iste'mol tuzilmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Ammo ratsional iste'mol byudjetining mohiyatini mutlaqlashtirib bo'lmaydi. U faqat prognozlashning dastlabki punktini tashkil etadi. Ratsional iste'mol va ta'minot me'yorlari shunday vositaki, ular yordamida xalq farovonligini oshirishning ustivor yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan ifodalash; ijtimoiy muammolarni yechish, turmush darajasi (sifati) kontseptsiyasini ishlab chiqish mumkin.

Iste'mol byudjetlari turli tovarlar va xizmatlarning ma'lum to'plami asosida tuziladi. Iste'mol to'plamlari turli iste'mol byudjeti uchun belgilangan bo'lib, unga kiruvchi tovarlar va xizmatlar tarkibi bilan ham, ularning hajmi bilan ham farqlanadi. Minimal iste'mol byudjetini hisoblashda bir qator tovarlar (xizmatlar) hisobga olinadi va minimal iste'mol me'yorlari yashash minimumiga nisbatan ancha yuqori (masalan, go'sht mahsulotlari bo'yicha - ikki baravar ortiq).

Iste'mol savati - insonning salomatligini saqlash va uning hayot-faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va

xizmatlarning minimal to'plamidir. Aslida, iste'mol savati uchta savatga iborat: oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmat savatchalari. Iste'mol savati kamida 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladi. Iste'mol savatida oziq-ovqat savati muhim o'rin tutadi.

Oziq-ovqat savati - bir odamning bir oyda ovqatlanishi uchun ketadigan mahsulotlar to'plami (u mahsulotlar iste'molining minimal me'yori asosida hisoblab chiqilgan) va bu to'plam jismoniy ehtiyojlarga mos keladi, zarur kaloriyani ta'minlaydi, asosiy oziq moddalar mavjud va ovqatlanishni tashkil etishning an'anaviy ko'nikmalariga to'g'ri keladi (1.3.2-jadval).

1.3.2-jadval

Aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlari uchun tavsiya etilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari to'plami (yiliga kg hisobida)

Mahsulot turi	O'rtacha aholi jon boshiga	Erkaklar (16-59 yosh)	Ayollar (16-59 yosh)	Pensio-nerlar	Bolalar	
					0-6 yosh	7-15 yosh
1. Non mahsulotlari	130,8	177,0	124,9	119,0	279,0	112,3
2. Kartoshka	124,2	160,0	120,0	90,0	85,0	135,0
3. Sabzavotlar	94,0	80,8	96,8	96,8	85,0	120,0
4. Meva–chevalar	19,4	14,6	12,6	10,6	34,4	44,4
5. Shakar va qandolat mahsulotlari	20,7	20,8	19,8	18,8	19,7	26,1
6. Go'sht mahsulotlari	26,6	32,2	25,0	19,8	18,7	33,5
7. Baliq mahsulotlari	11,7	12,7	10,7	12,7	8,7	12,5
8. Sut mahsulotlari	212,4	201,7	179,4	174,1	179,0	303,4
9. Tuxum (dona)	151,4	180,0	150,0	90,0	150,0	180,0
10. O'simlik yog'i va margarin	10,0	11,2	9,8	8,9	6,8	11,7

Manba: Politika doxodov i zarobotnoy plato' (Uchebno'e posobie) – M., 1999, s.66.

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning minimal miqdoriga O'zbekiston Respublikasida non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva-cheva, go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, tuxum, baliq mahsulotlari, shakar va qandolat mahsulotlari, o'simlik yog'i, margarin, boshqa mahsulotlar (tuz, qalampir va shu kabilar) kiradi. Minimal to'plam tarkibiga tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, delikateslar kiritilmagan.

Minimal iste'mol savatini ishga layoqatli yoshdagi aholi uchun shakllantirishga asos qilib ishlayotgan erkak kishiga sutkada 2720 kkal, oqsil iste'molini - 88,7 (shu jumladan, hayvonniki - 31,5), uglevodlarni 4412 gG'sutkani ta'minlovchi oziq-ovqatlar to'plami olinadi.

Yashash minimumi ko'rsatkichlari davlat tomonidan ijtimoiy siyosat yuritishda qo'llaniladi (xususan, aholining turmush darajasini baholash uchun yashash minimumidan past, teng va yuqori daromadli aholi salmog'i aniqlanadi), aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun aniq yetib boradigan manzilli ijtimoiy yordam uchun negiz bo'lib xizmat qiladi, eng kam ish haqi va pensiyalarni asoslashda foydalaniladi, shuningdek, kam ta'minlanganlik mezoni hamdir.

Shunday qilib, iste'mol savati va yashash minimumi insonning hayot faoliyatini to'laroq tahriflash imkonini beradi va aholi turmush darajasi hamda daromadlar ko'rsatkichlari tizimining tarkibiy qismidir.

II-bob. Namangan viloyatida aholi daromadlari va uni samarali shakllanishi tahlili

2.1. Aholi daromadlarini shakllanishi hamda uni oshirishda davlatning roli va mexanizmlari

Ijtimoiy siyosatda ikki asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: aholini ijtimoiy ta'minlash va davlat ijtimoiy kafolatlari. Shu o'rinda ijtimoiy ta'minlash sifatida: pensiya ta'minoti, nafaqalar bilan ta'minlash, aholining ayrim tabaqalari uchun belgalangan imtiyozlar va kompensatsiyalar tizimi va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni keltirish mumkin. Ikkinchi yo'nalish esa jamiyatning bir me'yorda rivojlanishini, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va sog'lomlashtirish, shuningdek, turarjoyga ega bo'lish huquqini ta'minlash bilan bog'liq.

Aholini ijtimoiy muhofazalashni bir vaqtning o'zida amal qiladigan va bir-birini to'ldiruvchi quyidagi to'rtta tizimga ajratish mumkin: davlat ijtimoiy ta'minoti, davlat ijtimoiy sug'urtasi, jamoa ijtimoiy sug'urtasi va shaxsiy sug'urta.

Davlat ijtimoiy ta'minoti — aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli nafaqalar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir. Soliqlar va boshqa byudjet tushumlari hisobiga moliyalanadigan bu yordam ularga belgilangan minimal turmush darajasini kafolatlaydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari, davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalanadi.

Jamoa sug'urtasi yetarli turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bunda ish beruvchilar va yollanganning sug'urta badallari to'lov manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy sug'urta farovonlikning yuqori darajasini kafolatlaydi. U ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Birinchi ikki quyi tizimning asosiy tamoyili—birdamlik, uchinchisiniki subsidiyalash, to'rtinchi, ya'ni shaxsiy sug'urtaniki esa, mutanosiblik tamoyilidir.

Birdamlik tamoyili yordamning muhtojlik darajasiga qarab, fuqaro to'lagan soliqlar va sug'urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishini ko'zda tutadi. Subsidiyalash tamoyilida esa, muhtojlik darajasiga qarab, ammo badallar miqdori va mos ravishda to'lovlar miqdorini hisobga olgan holda yordam ko'rsatiladi. Mutanosiblik tamoyili to'langan sug'urta badallariga mutanosib miqdorda yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda mustakdlikning dastlabki yilaridan boshlab iqqisodiy islohotlarning o'ziga mos yo'li tanlandi. O'tish davri jarayonlari Prezident I.A. Karimov olg'a surgan beshta asosiy tamoyillarida biri: «halq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy muhofaza qilishni ifoda etadi».

Ijtimoiy muhofazaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatidagi mohiyati jamiyat va aholi o'rtasidagi muxtojlik hollarida yordam, qariyalarga ko'maklashish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ahvol, hayotiy zaruriy vositalar bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlardan iborat.

Ijtimoiy muhofazaning iqtisodiy negizini moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi. Taqsimotchilik munosabatlari natijasida jamiyatning oldiga qo'yilgan bosh maqsadga muvofiq yalpi milliy maxsulotning muayyan qismi aholi ijtimoiy muhofazasiga sarflanadi. Ijtimoiy muhrfaza fondining aksariyat qismi taqsimotchilik jarayonida davlat byudjetida shakllanadi. Uning to'planish mexanizmi soliqlar va maqsadli jamg'armalardir.

Mamlakatimizda davom etayotgan va bozor iqtisodietini qaror toptirishga qaratilgan chuqur yuktimoiiyiqtisodiy islohotlar umuman fuqarolarning samarali ijtimoiy muhofaza qilishni, xususan, korxonalar xodimlarini muhofaza qilishni nihoyatda muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Bir tomondan, bu o'zgarishlar fuqarolarning ijtimoiy muhofazalanishini kuchaytiradi, ikkinchi tomondan esa, inson faoliyatining ayrim muhim tomonlarida ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha ko'proq kuchg'ayrat sarflanishini: ishsizlikdan, pulning qadrsizlanishidan,

fuqarolarning birmuncha qismi moddiy tomondan ta'min etilmaganidan va shu kabilardan muhofaza qilishni talab etadi.

Barcha aholiga mo'ljallangan ijtimoiy siyosat yordamga ehtiyojning ko'proq va kamroq darajasi kabi juda muhim omilga nisbatan sezgirlikni qo'ldan boy berdi. Shunday bo'lib chiqtsiki, kam ta'minlangan fuqrolar ham, tula ta'minlangan fuqarolar ham bir xilda madad olardi. Buning ustiga, dotatsiya joriy etilgan asosiy tovar va xizmat turlari haqiqatan iste'mol etilishiga nisbatan ulardan ayni shunday yordamga kamroq muhtoj bo'lgan kishilar ko'proq foydalanib qolishdi.

Haqiqatan ham muhtoj kishilar uchun kam samara bergan behuda sarfxarajat mablag'larning sohib yuborilishiga sabab bo'ldi. Shuni aytish kifoyaki, faqat respublika byudjeti orqali 30 xil turli yo'nalishlar bo'yicha yordam ko'rsatilgan. Ob'ektiv ravishda ijtimoiy muhofaza qilish vositalarini qayta yo'naltirish zarurati, yalpi ijtimoiy madad berish yo'lidan chindan ham yordamga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatishning tabaqalashgan, manzilli tizimiga o'tish zarurati tug'ildi.

Respublikada chindan ham muhtoj odamlarga manzilli, tabaqalashgan yordam berishga adolat g'oyasiga og'ishmay amal qilish qoidasi asos qilib olindi.

Ijtimoiy yordam tizimining adolat mezoniga bo'ysundirilishi aholi uchun g'oyat oddiy va ravshan bo'lgan taqsimot vositalarini talab qildi va ular ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillari aholini ijtimoiy muhofaza etish tizimi tubdan o'zgartirildi. Mazkur o'zgarish islohotlar ijtimoiy dasturini amalga oshirish birinchi bosqichining eng muhim yakuni bo'ldi hamda bozor munosabatlari rivojlanishiga mos yangi ustivoryo'nalishlarga o'tilganligidan dalolat berdi.

Yangi tizim ijtimoiy yordamdan aniq foydalanuvchilarga puxtarok yo'naltirilgan. Bular, avvalo, mamlakat kelajagi — bolalar, shuningdek, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalardir.

Ijtimoiy o'zaro yordam tizimida oila asosiy bo'g'inga aylandiki, bu esa, dunyoviy asosiy insoniylik qoidalariga, milliy anhanalar va xususiyatlarga, jamiyatda oila mavqeiga muvofiqdir.

Uzbekistonda muhtojlarga Ijtimoiy yordam ko'rsatishning eng sodda, samarali va oshkora vositasi kilib mahalla orqali yordam berilishi maqbul, deb topildi. Aholi demokratik asosda saylab qo'yadigan oqsoqollar (raislar), ularning maslahatchilari va mahalla faollari, fuqarolar yig'ishlari (ularga qonun yuli bilan mahalliy o'zo'zini boshqarish organi maqomi berilgan) har bir oilaning moddiy ahvolini, daromad manbalarini yaxshi biladi. Mamlakatda joriy etilgan ijtimoiy o'zaro yordam tizimiga binoan, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash masalasi mahalla fuqarolari yig'ilishtida hal qilinadi. Muxtojlarini aniqlash, hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish, ularga manzilli yordam berish ishiga bunday mutlaqo yangicha yondashuvda qo'ni qo'shnilarga yordam ko'rsatish, unga hamdardlik bildirish, shuningdek, tekinxo'r va boqimandalarga nisbatan murosasiz bo'lish kabi qadimiy xalq anhanalari namoyon bo'ladi. Endiliqda aholining adolat haqidagi tasavvurlarga muvofiq ravishda yalpi ichki mahsulotning bir qismi muhtoj oilalarga va ijtimoiy sohalar faoliyatini rivojlantirishga taqsimlab berilayotir.

2.1.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirishga
byudjetdan xarajatlar(mlrd.so'm)**

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2011 yilga nisbatan o'zgarishi (-, +)
Maktabgacha ta'lim muassasalariga	464,3	600,4	784,7	1011,4	547,1
Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirishga	3255,7	3183,5	3967,8	4744,0	1488,3
Sog'liqni saqlashni rivojlantirishga	1716,5	2226,7	3024,9	3709,9	1993,4
Madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalariga	154,5	185,3	223,4	287,4	132,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Xususan, 2014 yilda ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismini yoki 58,1 foizini tashkil etgan ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga Davlat byudjetidan 8803,2 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Shundan

maktabgacha ta'lim muassasalariga 1011,4 mlrd. so'm va umumta'lim maktablariga 4744,0 mlrd. so'm, ushbu ko'rsatkichlar 2011 yilga nisbatan mos ravishda 547,1 va 1488,3 mlrd. so'mga oshdi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish borasidagi ishlar izchil va tizimli asosda davom ettirildi. 2014 yilda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga davlat byudjetidan 3709,9 mlrd. so'm (ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'larning 24,5 foizi) yoki 2011 yilga nisbatan 1993,4 mlrd. so'mga ko'p mablag' xarajat qilindi.

Madaniyat, sport va ommaviy axborot vositalari uchun xarajalar 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 132,9 mlrd. so'mga oshib, 287,4 mlrd. so'mni (2012 yilga nisbatan o'sish – 28,7 foiz) yoki ushbu yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'larning 1,9 foizini tashkil etdi.

Ijtimoiy sektorda baholar mahsus rol o'ynaydi. Ular ijtimoiy ne'matlarni har xil turdaligini hisobga olgan holda talab va taklifni tashkil etish xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu esa ijtimoiy soha sektorlarining faoliyatiga qarab xizmatlar va tovarlar qiymatini belgilashda farqlarni mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, sof ijtimoiy ta'minotlarda baholarni tashkil etish qo'shma ijtimoiy ta'minotlarda baholarni tashkil etishdan farqlanadi..


Ayrim ijtimoiy ne'matlar(suv, havo) ning bozor bahosi yo'q (ya'ni ularni bahosi «0»ga teng). Iste'molchilar sof ijtimoiy ne'matlarga pul to'lashmaydi, ular uni bepul iste'mol qilishadi. Lekin bepul iste'mol faqat birinchi ko'rinishda bo'ladi. Ularni moliyalashtirish soliqlar orqali amalga oshiriladi (daryolar – ekologik soliq).

Sof ijtimoiy ne'matlar xuddi shaxsiy ne'matga o'xshab iqtisodiy ta'minotga kiradi. Ma'lumki, iqtisodiy ne'matlar bepul tabiiy ne'matlardan farqlanadi. Ularni ishlab chiqarish-ijtimoiy resurs harajatlarini talab qiladi, lekin taklifi bepul tabiiy resurslarga qaraganda cheklangan. Ushbu farqni o'z vaqtida A. Marshal ko'rsatgan. Iqtisodiy ne'matlar ham tabiiy ne'matlar kabi foydaliylikka ega. Masalan daryolarni va inson tomonidan qurilgan kanallarni foydaliyligi.

Sof ijtimoiy ne'matlarni bepulligi shuni belgilaydiki, ularga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanat baholar mexanizmi bilan emas, balki nobaholar mexanizmi bilan o'rnatiladi. Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy sektorda shunday nobaho mexanizmga: soliqlar, moliya normalari va boshqalar kiradi. Ularni bozor baholarga tenglashtirsak bo'ladi. Lekin ular umuman baholarga teng emas.

Ijtimoiy sektorning har xil segmentlari baho va nobaho mexanizmini har xil darajada qo'llaydilar. Masalan, ijtimoiy sektorni tabiiy monopoliya sharoitida talab va taklif o'rtasida muvozanat o'rnatishda suv bilan, gaz bilan, elektroenergiya bilan, issiqlik bilan ta'minlash baholari mexanizmi orqali tartibga solish ko'proq qo'llaniladi. Nobozor faoliyatni iqtisodiy doiraga kiritilishi bilan ijtimoiy va shaxsiy ne'matlarni bir biriga solishtirish zaruriyati paydo bo'ladi. Bunda ko'pincha chegaralangan ijtimoiy xarajatlar, chegaralangan ijtimoiy daromadlar bilan solishtiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy xarajatlarni shaxsiy harajatlarga solishtirish uchun ijtimoiy ne'matlarni al'ternativ qiymatini pul bilan baholash usuli qo'llaniladi (2.1.1-rasm).



Manba: Abdurahimova S.A. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – T.: 2015

2.1.1-rasm. Ijtimoiy ne'matlarni alternativ qiymatini pul bilan baholash usullari

Sof ijtimoiy ne'matlarni baholashda ikki qarama-qarshi pozitsiya mavjud. Birinchi pozitsiya bo'yicha sof ijtimoiy ne'matlar: insonning hayoti, sof havo, sof suv va hokazo, inson organizmini alohida organlari bahosiz bo'lib, ularga baho o'rnatish ahloqsizlikdir.

Ikkinchi pozitsiya bo'yicha esa hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki sof ijtimoiy ne'matlar ya'ni, masalan, inson organizmining organlariga alg'ternativ qiymatini hisoblash zaruriyati paydo bo'ladi. Nihoyat ijtimoiy ne'matlarni pulli baholash usullaridan biri-idonistik yondashuv bo'lib, ushbu yondashuv asosida tovar va xizmatlarga baholarni o'rnatish uchun uning zaminida ijtimoiy-psixologik omillarni yotishidir. Chunki, barcha insonlar avvalambor, hammadada bor narsani sotib olishga harakat qiladilar. Ayrim boy, ya'ni daromadlari yuqori bo'lgan odamlar bir xil mahsulotlarni brendligi ya'ni, markasi uchun masalan, qimmat baho avtomashinalar, turli bumlar va hakoazolarni sotib olishadi.

Ijtimoiy sektorlar mahsulot va ayrim xizmatlar uchun baholarni tashkil etishdan tashqari, nomukammal raqobat sharoitida ham baholarni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Tabiiy monopoliyalarda mahsulot va xizmatlar uchun baholarni tartibga solish bunga yaqqol misol bo'ladi. Bunga komunal xizmat tarmog'i sohasida aholini suv, gaz bilan ta'minlash, shahar passajir transporti va hokazolarni kiritish mumkin.

Tabiiy monopoliyalar faoliyati monopol huquq mavjudligi uchun ijtimoiy yo'qotishlar va ijtimoiy yutuqlar bilan bog'liqdir. Ijtimoiy yo'qotishlar monopoliya mahsulotlariga talabning nisbatan pastroq bo'lishi bilan bog'liq. Chunki, bu yerda baholar nisbatan balandroq bo'ladi. Lekin ayrim monopoliyalarda ishlab chiqarish jarayoni to'g'ri qo'yilgan bo'lsada, boshqarish xarajatlari ancha past bo'ladi va natijada baholar ham mukammal raqobat sharoitiga nisbatan pastroq bo'ladi. Buning natijasida monopoliyalarda texnika taraqqiyotining yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etishga ko'proq imkoniyatlar paydo bo'ladi. Lekin tabiiy monopoliyalar ushbu usuldan foydalanish vaqtida harajatlarni optimal darajadan

yuqoriga ko'tarish sharoiti paydo bo'ladi va ular baholar orqali iste'molchilarga yuklatiladi.

Davlatning ijtimoiy siyosatida fuqarolarning jamg'armalariga bo'lgan munosabat ahamiyatlidir. Ayniqsa, bu bozor iqtisodiyoti shakllanishi davriga juda taaluqlidir. Umuman, normal iqtisodiyotda farovonlik o'sib jamg'armaning ham imkoniyatini oshiradi. Jamg'armalarni inflyatsiyadan saqlash, qadrini pasaytirmay, ayniqsa investitsiyada foydalanish samaradorligini ta'minlash, umumiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bozor iqtisodiyotida qatnashuvchilar faoliyati ma'lum darajadagi daromad olish, foyda oliish bilan yakunlanadi. Albatta, bu sarmoya hajmi, faoliyat samarasiga bog'liqdir. Daromad olish bozor munosabatlari ta'siriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida band bo'lganlarning daromadi, tijorat, talab va taklif muvozanati, raqobatning ta'siri kabilarga yoki umumiy ma'noda aytganda, korxona faoliyati natijasi va tadbirkorlarning foyda darajasiga bog'liq. Chunki, asosiy ishlovchilarning daromad darajasi korxona daromadiga bog'liq bo'ladi.

Lekin boshqa xil daromad manbai ham bo'lib, u deyarli doimiy xususiyatli va uning darajasi davlat byudjeti imkoniyatidan kelib chiqadi. Bular davlat tomonidan maosh sifatida daromad oladiganlar bo'lib, davlat xizmatchilari, maorifchilar, o'qituvchi va ilmiy xizmatchilar, talabalar, sog'liqni saqlash xodimlari, madaniy okortuv tarmoqlari, mahmuriy idoralar xizmatchilari, xarbiy va ichki ishlar, tartibni saqlash muassasalari xodimlari kabilardir. Bulardagi daromadlarning umumiyligi shuki, uning miqdorini bevosita davlat belgilaydi va bu miqdor nisbatan doimiydir.

O'zbekiston Respublikasida aholini daromadlari haqida so'z yuritganda, sobiq ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53,3 barobardan bugungi 2014 yilda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu

ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim.

Birinchi toifadagilarning maoshi tufayli o'zgarib tursa va avvalo tadbirkor ish beruvchiga bog'iliq bo'lsa, ikkinchi toifadaginiki byudjet imkoniyatlariga bog'liqdir. Bularning barchasi ijtimoiy himoyaning nima aloqasi bor, savol tug'ilishi mumkin. Davlat ixtiyoridagilarning daromadini yuzaga keltirishda ijtimoiy himoya zarurligi to'g'risida bunday savol tug'ilmasa ham, xo'jaliklardagi ayniqsa xususiy tarmoqdagilarning daromadi to'g'risida shunday tug'ilishi mumkin.

Daromadlardagi tafovutlar bevosita bozor munosabatlari ta'sir etuvchi sohada band bo'lganlarga taaluqlidir. Shuning uchun ham yollanish, mehnat qilish, shuningdek, daromad paydo bo'lishi aniq asoslari davlat tomonidan yaratiladigan qonunlar tufayli belgilanadi. Aytaylik qaysi hosa, tarmoq bo'lmasin, bularning umumiyliigi mavjuddir. Buning ijrosini davlat o'z nazorati ostiga oladi. Chunki bular umuminsoniy manfaatdan, inson huquqlaridan kelib chiqadi.

Respublika davlat byudjetida umuminsoniy manfaatlardan va inson huquqlarini qondirish maqsadida - 2014 yilda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o'zgartirishlar amalga oshirildi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltirilmoqda. Shuni takidlash kerakki davlat ixtiyoridan daromad oluvchilar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bularning daromad darajasi erkin iqtisodiy sohadagidan katta farq qilmasli va turmush darajasining bevosita bozordagi daromad darajasidagi va narx-navoning holatiga qarab maoshlar miqdori mamlakatimizda ham o'zgarib boradi.

Bundan tashqari hozirgi kunda mamlakatda bevosita mehnatsiz daromad oladiganlarning soni ham yetarlicha bo'lib, bular asosan mehnatga noloyiq odamlardir. Bularning asosini nafaqaxo'rlar tashkil etadi va 2013 yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 15147,0 mlrd. so'm yoki umumiy xarajatlarning 58,7 foizi miqdorida mablag' ajratildi. Bu xarajatlar YaIMga nisbatan 12,7 foizni tashkil etdi. Albatta,

bozor iqtisodiyoti aholining ushbu qatlamini turmush darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. TSivilizatsiya sharoitida mehnatga noloyiq odamlarni iqtisodiy jihatdan qo'llash, bozor ta'siridan himoya qilish har bir davlatning burchi bo'lib, zamonviy nafaqa tizimini amalga oshirish uning o'z fuqorolariga munosabati yoki kattalarni iqtisodiy qaramlikdan qutqarib, turmush darajasini pasayishiga yo'l qo'ymasligi davlatning xaqiqiy insonparvarlik vazifasini ado etish darajasini belgilaydi.

Ma'lumki o'tish davrida, barcha sohalarda bo'lgandek, aholini ijtimoiy himoyalash o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, kambag'allashuv, ishsizlik va muxtojlik masalariga e'tibor kuchaytirildi. Ma'lumki, ishga yaroqsizlar-nogironlar, qariyalar, ko'p bolali oilalar to'la davlat ta'minnotidadir.

Respublika nafaqa darajasi maosh darajasidan juda kam farq qiladi. Shu bilan birga aholining barcha qismi bu tizim bilan qamrab olingan. Hozir daromadsiz hech kim qolmadi. Ilgari esa faqat mehnat qilgan vaqti asosida nafaqa belgilanib, ko'pchilik mehnatga layoqati yo'qlar nafaqa olmas va haddan tashqari iqtisodiy og'ir ahvolda qolar edilar. Ayniqsa, bunday ahvol qishloq joylarda ko'p bo'lib, ko'pchilik ayollar shunday sharoitda edilar. Hozirgi kunda barcha qandaydir daromadga ega. Nafaqalar turi ko'paymoqda ko'p bolali onalar farzand ko'rayotganlar bolaligidan nogiron bo'lib mehnat layoqatini yo'qotganlar va shunga o'xshaganlarning hammasi to'la ijtimoiy himoya ostiga olingan. Nafaqalarning eng past miqdori belgilangan. Talabalar, askarlar ham to'la davlat himoyasidadir.

Daromadga ta'sir ko'rsatuvchi davlat tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlardan yana bir turi ma'lum mutaxassislarga belgilangan imtiyozlar. Masalan, urush qatnashchilari, baynalmillatchilar, o'qituvchilar tibbiyot xizmatchilari, askarlar kabilarga bir qancha iqtisodiy yengiliklar yaratilgan. Bular qatoriga shaxsiy daromad solig'idan ozod qilish yoki imtiyoz berish, uy-joy to'lovi, kommunal xizmat haqi to'lashdagi imtiyozlar kiradi. Ma'lumki, bunday to'lovlar shaxsiy daromadga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholining daromadi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muxofazaning eng insonparvarlik xususiyati shuki, u insonning iqtisodiy erkinligi, iqtisodiy va jismoniy hayotini belgilash bilan bog'liqdir. Bu esa inson uchun eng muhim masaladir. Bu masalani to'g'ri xal qilish davlat yetuklik darajasidan dalolat beradi.

2003 yil 15 oktyabrg' O'zbekiston Respublikasi tarixidagi muhim sanalar qatoridan o'rin olishi shubxasiz. Zero, xuddi shu kuni o'zbek so'mini joriy operatsiyalar bo'yicha ichki erkin almashtirish rasman boshlandi. Mazkur xolat mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish jarayoni yangi bosqichga o'tganligidan yorqin dalolat bo'ladi. Xalqaro tajribada mustaqil pul birligini joriy etishning birdaniga va asta-sekin amalga oshirish usullari mavjud. Birinchi usulni shartli ravishda «inqilobiy», ikkinchisini esa «tadrijiy» deb atash mumkin.

Birinchi holda bu jarayon qisqa vaqtda va asosan to'satdan o'tkaziladi. «Inqilobiy» usulda aholining umr bo'yi yiqqan pul jamg'armasi qiymatini saqlab qolish bosh maqsad sifatida qo'yilmaydi. Milliy valyutaga o'tishning bu usulini tanlagan Hamdo'stlik davlatlari fuqorolarining qanday jiddiy qiyinchiliklarga duch kelganligining guvohimiz. Mazkur davlatlarda bu holat aholining xaqli ehtirozlariga sabab bo'ldi, ayrim davlatlarda hatto hukumat inqirozlarini yuzaga keltirib chiqqan muhim sabablardan biri sifatida ehtirol etildi.

O'zbekistonda milliy valyutaga o'tish, uning almashinuvini ta'minlash masalasida «tadrijiy» usuldan foydalanilmoqda. Tan olish kerak, jahonning xech bir davlatda bir pul tizimidan boshqasiga o'tish va uning konvertatsiyasiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida xalq manfaatlari bizdagidek alohida e'tiborga olinmagan edi. Buni 1993 yil 15 noyabrda boshlangan milliy valyutani joriy etishning tayyorgarlik bosqichi, ya'ni oraliq to'lov vositasi - «so'm-kupon»ga o'tish vaqtidan boshlab kuzatishimiz mumkin. qarang, ayrim davlatlarga o'xshab Rossiya rubllari o'rniga «so'm-kupon» muomilaga kirishi bilan eski puldan darhol voz kechilgani yo'q. Negaki, daromadlarini rublda jamg'arib kelgan aholiga uni oxirgacha ishlatish imkoniyatini berish maqsad qilib qo'yildi.

Almashtirish miqdori yuqori - 200 ming rublg' qilib belgilandi, undan ortiq qismi ham «kuyib» ketgani yo'q, balki bankda mazkur shaxsning nomiga jamg'arma sifatida rasmiylashtirildi. Vaholanki, o'sha paytda o'z milliy valyutasiga o'ta boshlagan Hamdo'stlik davlatlarining barchasida eski rubllarning 20, 30, 50 ming, eng ko'pi bilan 100 mingga almashtirildi, undan ortiq qismi qolib ketdi, ya'ni peshona teri bilan topilgan mablag' bir kunda keraksiz qog'ozga aylanib qoldi.

Mamlakatimizda pul almashtirilishi bilanoq, pensiya, stipendiya, nafaqa va ish haqi yangi «so'm kupon»da berila boshlandi. Ko'plab ishlab chiqarish korxanalarining o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra murakkab iqtisodiy axvolga tushib qolganligi e'tiborga olinib, ularga shu maqsadda foydalanish uchun foizsiz bank krediti ajratildi. Milliy pul birligini joriy etish bilan bog'liq ob'ektiv qiymatlarni yumshatish masalasi shu taxlit chora tadbirlar amalga oshirildi va 1994 yil 1 iyuldan «so'm kupon»o'rniga xaqiqiy valyuta - so'mga o'tish jarayoni xalq uchun moliyaviy yo'qotishlarsiz oshirildi.

Chetdan qaraganda, mamlakatimizda milliy valyutaga o'tish va uning konvertatsiyasiga erishish jarayoni bir muncha cho'zilib ketganga o'xshaydi. Moliyachi mutaxassis sifatida aytishim mumkinki, O'zbekistonda ham milliy valyutani darhol muomilaga kiritish va birdaniga uning erkin almashuvini ta'minlash hamda uning almashuv kursini sunhiy yo'llar bilan ko'tarib olish yo'lidan borish mumkin edi. Lekin bunday usul, birinchi navbatda, xalqning ehtiyojmand tabaqalari keskin qashshoqlashishiga olib kelishi ehtimoli borligi sababli mamlakatimiz rahbariyati xorijlik «maslahatchilar» takliflarini mulohaza qilib ko'rishdi.

Qolaversa, o'zbek so'mi muomilaga kirgandan to uning ichki konvertatsiyasi rasman e'lon qilgan 2003 yil 15 oktyabrga qadar o'tgan salkam o'n yil davomida ham u amalda aslida konvertatsiya qilinib qoldi. To'g'ri, bu konvertatsiya ma'lum bir cheklovlarga ega edi. Shu o'rinda milliy valyutaning to'la konvertatsiyasi mohiyati haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hech qanday cheklovsiz,

hoxlagan paytda hoxlagan miqdordagi pulni hoxlagan tarzda konvertatsiya qilish hech bir davlatda mumkin emas va jahonda bunday valyutaning o'zi yo'q, bo'lmaydi ham.

Masalan, AQSh yoki Angliyaga ularning bir qop pulini ko'tarib kelsangiz, hech qaysi bank uni qabul qilmaydi. Siz eng avvalo, olib borgan pulingizni qaerda va qanday ishlab topganligingiz haqida, ya'ni uning manbai hamda hujjat taqdim etishingiz shart. Mana shu ham cheklovning bir ko'rinishi. Bunga o'hshash cheklovlar juda ko'p. (Masalan, valyutasi to'la konvertatsiya qilinadigan davlatlarda narkobiznes, o'g'irlik, fohishabozlik, narkotik va qurol-yarog'ni noqonuniy tarzda sotish kabi ko'p juda ko'p holatlarda pulni boshqa valyutaga konvertatsiya qilish mutloqo taqiqlagan, ularni ham yo'l qo'ymaydi).

Demak, hamma gap cheklovlar mazmuni, shakli va miqdorida. Shu pozitsiyadan qaraydigan bo'lsak, o'tgan davrda halqning yuqori turmush darajasini ta'minlashga qodir rivojlangan bozor iqtisodiyoti barpo etish jarayoniga hizmat qiladigan holatlarda milliy valyutamiz hamisha konvertatsiya qilib kelindi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, eksportga mahsulot chiqaradigan yoki import o'rnini bosadigan yuqori sifatli mahsulot yaratayotgan yoki shunday xizmat ko'rsatayotgan xo'jalik yuritish sub'ektlari so'mni doimo erkin almashtirib keldilar.

Bugun baralla aytish mumkin, shunday manzilli konvertatsiya usuli natijasida cheklangan miqdorda erkin valyutaga ega yosh, mustaqil davlatlar ichida O'zbekiston birinchi bo'lib, bir necha baravar kam erkin almashinadigan valyuta sarflab, qisqa fursat ichida sobiq ittifoqdagi meros qolgan mustamlaka mamlakat iqtisodiyotini mustaqil davlat iqtisodiyotiga aylantira oldi. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan, har qanday ichki va tashqi bo'hronlarga bardosh bera oladigan baquvvat iqtisodiyotning asosi yaratildi. O'nlab yangi tarmoq va sohalarga asos solindi, ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolgan minglab ishlab chiqarish korxonalari butunlay qaytadan zamonaviy, yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlandi.

2.2. Namangan viloyatida aholi daromadlarining samarali shakllanishi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Mamlakatimizning ko'p asrlik tarixi va mustaqillik davridagi taraqqiyotida Namangan viloyati o'zining boy o'tmishi, madaniyati sanoati, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda erishilgan natijalari bilan alohida o'rin egallab kelgan. Namangan viloyati sanoati asosan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalaridan iborat. Sanoat korxonalarining asosiy qismi Namangan sanoat tugunida joylashgan. Viloyatda iqtisodiy imkoniyat va salohiyat, zamonaviy infratuzilma mavjud bo'lib, ayni paytda uni yanada takomillashtirish zarurati ham yo'q emas, buning uchun dunyo tajribasida aniqlanganidek, investisiya jalb qilish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirda shu maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga qo'llash borasida muayyan ishlarga kirishilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda mavjud yashovchi aholining soni 2554,0 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 50,3 ming kishiga yoki 2,0 foizga ko'paydi.

Hisobot davrida aholining tabiiy o'sishi 50,3 ming kishini tashkil etdi. 2014 yil yanvar-dekabr oylariga aholining ko'chib kelish va ko'chib ketish migratsiya salg'dosi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, - 346 tani tashkil qildi. (Ko'chib kelganlar 4869 kishi, ko'chib ketganlar 5215 kishi).

2014 yil yanvar-dekabr oyida aholining tabiiy harakati quyidagicha ifodalanadi:

2.2.1-jadval.

Namangan viloyatida aholining tabiiy harakati

Ko'rsatkichlar	Kishi			Har 1000 kishiga	
	2013 y	2014 y	o'sish, kamayish (+ , -)	2013 y	2014 y
Tug'ilganlar	56859	62288	5429	22,9	24,6
O'lganlar	11407	11978	571	4,6	4,7
shu jumladan bir yoshgacha bolalar	558	604	46	0,2	0,2
Tabiiy o'sish	45452	50310	4858	18,3	19,9
Nikohlar	25110	25294	184	10,1	10,0
Ajralishlar	1788	2118	330	0,7	0,8

Manba: Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

2015 yil 1 yanvar holatiga tug'ilganlar soni 62288 kishini tashkil qildi va 2013 yilning shu davriga nisbatan 9,5 foizga ko'paygan, tug'ilish koeffitsienti 22,9 promillegan 24,6 promillega ko'paydi.

Tug'ilish darajasini ko'payishiga asosan Namangan shahrida (24,4 dan 26,5 promillega), Namangan tumanida (22,9 dan 25,0 promillega), To'raqo'rg'on (22,8 dan 26,2 promillega), Uychi (23,9 dan 27,0 promillega) Uchqo'rg'on tumanida, (22,4 dan 24,2 promillega) tumanlarida qayd etildi.

O'tgan davr mobaynida o'lganlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 571 kishiga yoki 5,0 foizga ortgan.

O'lim darajasi Uchqo'rg'on tumanida (5,4 dan 5,1 promillega), Chortoq tumanida (4,5 dan 4,2 promillega), Chust tumanida (4,5 dan 4,4 promillega), Yangiqo'rg'on tumanida (4,7 dan 4,6 promillega) kamaygan.

O'lganlar umumiy sonidan 4,7 foizi qon aylanish sistemasi kasalliklaridan, 0,8 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan, 0,4 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan vafot etgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2014 yil yanvar-dekabr oylarida bir yoshga to'lmay o'lgan bolalar soni 604 tani tashkil qildi.

2014 yilning yanvar-dekabr oylarida 25294 ta nikoh ro'yxatga olindi, ajralishlar soni esa 2118 tani tashkil qildi. Ming aholiga 10,0 nikoh va 0,8 ajralishlar to'g'ri kelmoqda. (2013 y. yanvar-dekabrda mos ravishda 10,1 va 0,7).

Mehnat resurslarining soni dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 1,8 foizga ko'payib, 1506,8 ming kishini yoki viloyat doimiy aholisining 60,0 foizini tashkil qildi.

2015 yilning yanvar-dekabr oylarida mehnat bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 28,5 ming fuqaro murojaat qildi. Mehnat bo'limlariga ish qidirib murojaat etganlar darajasi Namangan shahrida (viloyat

bo'yicha ish qidirib murojaat etganlar umumiy sonining 14,8 foizi), Chust tumani (11,3 foizi), Yangiqo'rg'on tumani (10,2 foizi), tumanlarda yuqori bo'ldi.


Mehnat bo'limlariga murojaat qilgan 26,6 ming fuqaro (barcha murojaat etganlarning 93,4 foizi) ishga joylashtirilgan. Ishga joylashtirilganlarning 53,1 foizi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan aholidir.

2015 yil dekabr oyining oxirida ish qidirish uchun viloyat mehnat bo'limlarida hisobda turgan aholi soni 2581 kishini tashkil qildi.

Ishga joylashish maqsadida mehnat bo'limlarida ro'yxatda turgan aholining aksariyati Namangan shahrida 4233 kishi (viloyat miqyosida jami ro'yxatda turganlarning 14,8 foizi) va Chust tumaniga 3234 kishi (11,3 foizi) to'g'ri keladi.

2.2.1-diagramma

Mehnat bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)



Manba: Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirish maqsadli kompleks Dasturlarini amalga oshirish doirasida, oilaviy tadbirkorlik hamda xunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish hamda kasanachilik doirasida viloyat bo'yicha 44452 ta ish joylari tashkil qilingan.

Viloyat bo'yicha tashkil qilingan yangi ish joylari umumiy sonining 81,7 foizi (61,8 mingta ish joyi) qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar xajmi 1386148,0 mln. so'mni, uning real o'sishi esa 2015 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 117,7 foizni tashkil qildi. Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning asosiy qismi rasmiy sektor tomonidan amalga oshirilib (50,0 foiz), bu sektorda xizmatlar xajmi amaldagi narxlarda 693285,3 mln. so'mni, o'sish surhati esa 118,1 foizni tashkil qildi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 117,3 foizga o'sib, 692862,7 mln. so'mni, pullik xizmatlar umumiy xajmidagi ulushi esa 50,0 foizni tashkil etdi. Aholiga ko'rsatilgan umumiy pullik xizmatlar xajmida nodavlat sektorining ulushi 93,2 foizni tashkil qildi. (2014 yil yanvar-dekabrga nisbatan 118,3 foiz).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha aholiga ko'rsatgan pullik xizmatlar xajmi quyidagicha ifodalanadi:

2.2.2-jadval

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha aholiga ko'rsatgan pullik xizmatlar xajmi

Ko'rsatkichlar	Mln. so'm	Yakunga nisbatan foiz hisobida	Ma'lumot uchun: 2014 yil yanvar-dekabr yakuniga nisbatan foiz hisobida
Jami	1386148,0	100,0	117,7
davlat mulki	93639,1	6,8	110,0
nodavlat mulki	1292508,9	93,2	118,3
<i>shundan:</i>			
fuqarolarning xususiy mulki	728690,2	52,5	117,9

Manba: Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

Pullik xizmatlar umumiy xajmida maishiy xizmatlar 12,2 foizni yoki 168919,4 mln. so'mni tashkil qildi. Ularning real xajmi 2014 yil yanvar-dekabrga nisbatan 112,9 foizga oshdi. Maishiy xizmatlarning 99,5 foizi xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilib, ushbu sektorning xizmatlar xajmi dastlabki baholanganda 167995,8 mln. so'mni, o'sish surhati esa 112,3 foizni tashkil qildi.

Maishiy xizmatlar xajmining Uchqo'rg'on tumanida (116,0 foiz), Chortoq tumanida (119,2 foiz) va Yangiqo'rg'on tumanlarida (117,8) bu ko'rsatkich yuqori bo'ldi.

2015 yil yanvar-dekabrg' oyida ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha (haqiqiy baholarda) quyidagicha ifodalanadi:

2.2.3-jadval

Viloyatda 2015 yilda ko'rsatilgan xizmat turlari ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Mln. so'm	2014 yilning yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida	Yakunga nisbatan foiz hisobida
Jami xizmatlar	3771815,7	122,0	100,0
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (uyali aloqa, "Internet" tarmog'idan foydalanish, kabel televizion aloqasi, pochta va elektron aloqa xizmatlari bilan birga)	237100,3	128,0	6,3
Kompg'yuterli programmashtirish xizmatlari	933,4	126,4	0,02
Moliya xizmatlari (bank, sug'urta va moliyaviy lizing xizmatlari bilan birga)	199266,9	128,8	5,3
Transport xizmatlari (logistik xizmatlar bilan birga)	504115,8	126,0	13,4
Kurilish xizmatlari (muhandislik jihozlarini tahrirlash va o'rnatish xizmatlari bilan birga)	181055,4	125,9	4,8
Texnologik uskunalarni tahrirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari	12248,5	113,2	0,3
Kishloq xo'jaligi texnikalarini tahrirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari	16182,1	117,1	0,4
Turistik xizmatlar (mexmonxona xizmatlari bilan birga)	9719,0	112,5	0,3
Savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari	1199936,5	125,6	31,8
Maishiy xizmatlar	249321,3	120,8	6,6
Ta'lim xizmatlari	117547,1	119,0	3,1
Sog'liqni saqlash xizmatlari	55123,8	122,2	1,5
Qishloq xo'jaligi xizmatlari	33954,3	117,9	0,9
Boshqa xizmatlar	955311,4	113,3	25,3

Manba: Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

Xizmat ko'rsatishda eng katta ulush savdo va umumiy ovqatlanish (31,8 foizi), boshqa xizmatlar (25,3 foizi), transport (logistik xizmatlar bilan birga (13,4 foizi), maishiy xizmat (6,6 foizi), aloqa va axborotlashtirish (6,3 foizi), moliya xizmati (5,3 foizi), kurilish (4,8 foizi) va ta'lim (3,1 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi. Moliya xizmatlari, bank, sug'urta va moliyaviy lizing xizmatlarini o'z ichiga olgan holda (128,8 foiz) Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, uyali aloqa, "Internet" tarmog'idan foydalanish, kabel televizion aloqasi, pochta va elektron aloqa xizmatlarini o'z ichiga olgan holda (128,0 foiz), transport (logistik xizmatlar bilan birga) (126,0 foizi) Qurilish xizmatlari (125,9 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish (125,6 foizi) va sog'likni saqlash (122,2 foiz) xizmatlarda o'sish yuqori bo'ldi.

III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi daromadlarini oshirishning asosiy yo'nalishlari

3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish – aholi daromadlarini oshirishning muhim omilidir

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan maxsus iqtisodiy faoliyat bo'lib, biznes nomini olgan. Biznes bilan shug'ullanuvchi kishilar «biznesmen» deyiladi. Keng ma'noda bironta ish bilan shug'ullanib, pul topishdan iborat faoliyat «biznes» deb ataladi.

Tadbirkorlik – biznesning asosiy unsuridir. Ammo biznesda tadbirkorlikka aloqasi yo'q ishlar ham bor, masalan, o'z mulkini ijaraga berish, pulni bankka qo'yish yoki yashirin yo'l bilan sudxo'rlik qilish. Bu ishlar pul topish yo'li, lekin tadbirkorlik emas

«Tadbirkorlik» deganda moddiy va pul mablag'larini foyda topish yo'lida sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlarni yetkazib, kishilarga naf keltiruvchi, ularning hojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi.

Tadbirkorlik–o'z mulkini ishlatib yoki o'zga mulkidan amalda foydalanib, tovarlar yaratish yoki xizmatlar ko'rsatish. Undan kutilgan maqsad esa pul topish. Bu ishni aholining maxsus toifasi–tadbirkorlar olib boradilar. Tadbirkorlik maxsus tayyorgarlik va istehdod talab etadi. Tadbirkorlar sinfi bor, ular foydani ko'zlab ishlaydi, o'ziga to'q va farovon yashovchi guruhni tashkil etadi.

Tadbirkorlik – mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan O'zbekistonda tadbirkorlar ishchi, xizmatchi va dehqonlar hisobidan vujudgakela boshladi. Bu yerda tadbirkorlar kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchilardan, fermerlardan, tomorqa xo'jaligi sohiblaridan, hissadorlik jamiyati ahzolaridan, yakka tartibda

ishlovchilardan iborat. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchi, chunki u bozorga tovarlar va xizmatlarni muntazam yetkazib beradi, bozordagi talabni to'ldiradi.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida milliy iqtisodning barcha tarmoqlarda ko'plab kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonlari vujudga kelmoqda. Ushbu korxonlar aholi daromadlarini oshirish bilan ularning bandligini ta'minlashda, ichki iste'mol bozorini zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqdalar. Ushbu tarmoqning yillar davomida o'zgarish dinamikasidagi ijobiy natijalar buning tasdig'idir.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayib borayotgan bir sharoitda ushbu sohada mahsulot yetishtirish yuqori sur'atlar bilan ko'paymoqda. 2015 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2014 yilga nisbatan 6,9 foizga oshgani ham shundan dalolat beradi.

Bizning bu boradagi eng katta yutuq sifatida yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2015 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda va aholi turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liqdir. Bu holat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi PQ – 1501 sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Qaroriga binoan tadbirkorlarga quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan oladigan daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod qilindi;

- ustuvor ravishda olis va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalariga ajratiladi;

- tijorat banklariga kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi;

- jamg'arma hisobidan kreditlar eng kam oylik ish haqining ikki ming baravaridan ortiq bo'lmagan summada ajratilishi belgilandi;

- jamg'arma mablag'lari hisobidan kreditlar mahsulot yetishtirish (tamakichilik va alkogolli mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari), ishlarni bajarish, xizmatlar (savdo sohasi va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarga ajratiladi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqildi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil

takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to'lovchilar va davlat byudjeti manfaatlari o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunday uyg'unlikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat byudjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan birga, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligiga erishishdan iborat. Keyingi yillardagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida soliq yukini muntazam kamaytirib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda, ushbu holat 2015 yilda ham kuzatildi va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etdi.

Soliq yuki darajasi Yurtimizda izchillik bilan kamayib bormoqda. Agar ushbu ko'rsatkich 2002 yilda YaIMga nisbatan (maqsadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 27,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilga kelib to'rt punktga (23,2 foiz), 2011 yilda esa 6 punktga kamaydi va YaIMga nisbatan 21,9 foizni tashkil etdi. 2014 yilda esa soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Soliq yukini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda kamaytirib borish o'z samarasini berdi. Milliy bozorni mahalliy tovarlar (xizmat, ish)lar bilan to'ldirayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilayotgan, shuningdek, kichik biznes sub'ektlari shaklidagi soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarining kengaytirilishiga qaramasdan, yalpi ichki mahsulot va davlat byudjetining daromadlar hajmida yil sayin o'sish ta'minlanmoqda. Bu esa o'z navbatida aholini tadbirkorlik faoliyati bilan band qismiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholi daromadlarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori surhatlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam

qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi. Bu haqda so'z yuritganda, sobiq ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib yana shuni aytish lozimki, respublikamizda kichik va o'rta biznes korxonalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiy o'sishini

ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan - aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga olib keladi va respublikamizni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi.

3.2. Aholi daromadlarini oshirish va turmush madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlari

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun «turmush darajasi», «xalq farovonligi», «turmush faoliyati xavfsizligi», «turmush tarzi», «mehnat faoliyati sifati», «turmush sifati» kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Bahzan turli atamalar bir mazmunni anglatadi, boshqa hollarda ular o'rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'likligini qayd etish lozim.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan «turmush darajasi» atamasi kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga turmush darajasi — ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Turmush darajasi birinchidan, muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, ikkinchi tomondan, exgiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish xaqi bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ish haqi miqdori ham, turmush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lamini, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-mahrfiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, barchasi albatta siyosiy hokimiyatga bog'liqdir.


O'tgan asrning 70-80 - yillarida «turmush tarzi» tushunchasi keng qo'llanilgan. Bunda hayot faoliyatining sifat ko'rsatkichlari «turmush tarzi», miqdor ko'rsatkichlari esa «turmush darajasi» bilan ifodalangan. Shuningdek, aholining turmush darajasini xarakterlovchi boshqa atamalar va tushunchalar

mavjud. Turmush darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: “Turmush darajasi — bu, jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir”. Bunday talqin turmush darajasining sifat va miqdor ko’rsatkichlarini yanada to’liqroq ifodalashga imkon yaratadi.

Turmush darajasi inson hayot faoliyatining ma’lum bir qirrasida tasavvur beradigan ko’rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to’g’risida batafsil ma’lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o’rganish lozim.

Turmush darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlar turli-tuman bo’lib, turmush darajasi kontsepsiyasi bilan uzviy bog’liq.

Turmush darajasi ko’rsatkichlari umumiy va xususiy turlarga ajratiladi (3.2.1-rasm).



Manba: Abdurahimova S.A. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. O’quv qo’llanma – T.: 2016

3.2.1-rasm. Aholi turmush darajasi ko’rsatkichlari

Umumiy ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy darajasini ifodalaydi.

Xususiy ko'rsatkichlar ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq, ammo aholi (mehnatkashlar)ning ma'lum guruh-lari, hudud va boshqalar bo'yicha aniqlashtirilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarinson va jamiyat hayotining iqqisodiy jihatlarini, extiyojni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Jamiyat iqqisodiy taraqqiyoti va har bir insonning farovonligi (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlar sirasiga kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchini (aholini) takror ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning iqtisodiy asoslarini ochib beradi. Bu, ayniqsa, aholi daromadlari salmog'i va ularni differentsiatsiyalashda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlaraholining yoshi, jinsi, kasbiy-malakaviy tarkibini, ishchi kuchini jismoniy takror ishlab chiqarishni ifodalaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi va ijtimoiy soha, umuman, iqqisodiyot taraqqiyoti bilan mustahkam aloqada. Bu omillar aholishunoslikning tabiiy asoslari, ya'ni aholi, uning ayrim guruxlari sonining o'zgarishi, umr ko'rish davri xaqida tasavvur hosil qiladi.

Ko'rsatkichlarning ob'ektiv va sub'ektivturlarga bo'linishi insonlar xayot faoliyatidagi o'zgarishlarni asoslash zarurati bilan izoxlanadi. Ob'ektiv ko'rsatkichlar ob'ektiv (iqtisodiy, texnik va hokazo) bazaga ega bo'lsa, sub'ektiv ko'rsatkichlar ahali guruxlari yoki alohida shaxslarning mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, ish, tgurmush tarzi va shu kabilardan qoniqishi bo'yicha hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar.Qiymat ko'rsatkichlari barcha daromad ko'rsatkichlari va pul ko'rinishidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, tashishlar, pul jamg'armalari va qo'yilmalari va hokazolarning hajmi)ni o'z ichiga oladi.

Natural ko'rsatkichlarnatural birliklarda (dona, kv.m., kub m. va hokazolar) o'lchanadigan muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar oziq-ovqat mahsulotlari, energiya iste'moli, mol-mulk, turarjoylar, madaniy-maishiy tovarlar ta'minotining xjmini ifodalaydi.

Turmush darajasini ifodalashda miqdor va sifat kursatkichlari muhim ahamiyatga ega. Miqdor ko'rsatkichlari muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'mol hajmini aniqlaydi. Sifat ko'rsatkichlari esa, aholi farovonligani sifat jihatndan baholash imkonini beradi. Ular moddiy ne'matlar, xizmatlar iste'mol tarkibi, ovqatlanish, ma'lumot, malaka, uzoq muddatga muljallangan ijtimoiy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganlik darajasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Aholi farovonligi proportsiyasi va taqsimot tarkibining(aholi qatlamlarini daromadlar bo'yicha taqsimlanishi, daromadlar va iste'molni kontsentratsiyalash hamda differentsiatsiyalash ko'rsatkichlari va boshqalar) ifodalovchi ko'rsatkichlarni mustaqil ko'rsatkichlar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Statistik qo'rsatkichlar turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimida muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ilgari qabul qilingan tasnifdan foydalanish deyarli mumkin emas, chunki sho'rolar davrida tarkib topgan 280 dan ortiq ko'rsatkichni baholash juda murakkab va shu bilan birga so'nggi yillarda ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishlari, hisob yuritish va hisobot amaliyoti tub o'zgarishlarga yuz tutdi hamda mamlakatda milliy manfaatlarni himoya qiluvchi iqtisodiy omillar muhim o'rin tutadi.

Hozirgi paytda yuzaga kelgan sharoitlarni hisobga olib, bozor iqtisodi sharoitlariga muvofiqlashtirilgan bir qator ayrim muhim ko'rsatkichlardan foydalanib tahlillar o'tkaziladi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasining o'zgarishi

TG'№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)
1	Yalpi ichki mahsulot	108,3	108,2	108,1	8,0
2	Aholi daromadlari	122,4	115,2	114,2	7,0
3	Aholi jon boshiga YaIM	123,1	121,0	110,2	8,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi o'z navbatida aholi turmush farovonligini oshishida muhim ahamiyat kasb etib, yalpi ichki mahsulot hajmi 2014 yilda 108,0 foizni tashkil etdi. Aholi daromadlari va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot xajmi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan mos ravishda 7,0 va 8,1 foizga ortib, 114,2 va 110,2 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mashuliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadida hamda 2016 yil «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifalari va yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish;

- sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oilaning mevasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko'rsatish, onalik va bolalik muhofazasini ta'minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ro'zg'or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- sog'lom bolani voyaga yetkazishda, patologiyalarsiz bolalar tug'ilishida sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot xodimlarining roli va mashuliyatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli axborot-tushuntirish ishlarini muntazam olib borish.


Sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta'minlash, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, bolalar, ayniqsa qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'llari ishlab chiqildi.

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda uning bajarilishi avvalambor kelgusi hayotimizda farovon va baxtli turmushga erishish, yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovatiga, oila, jamiyat va davlat oldidagi o'z mashuliyat va burchini chuqur anglashiga bog'liq. Shu bois, yuksak orzu-umidlar bilan keng hayotga endigina qadam qo'yayotgan yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish uchun birinchi galda davlat va jamiyat mas'uldir.

Aholi turmush farovonligini oshirish, kambag'allikni oldini olish, va daromadlar darajasini oshirish muammolarini hal etishda iste'mol byudjeti asosida

aholini minimal daromad bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu yerda, iste'mol byudjeti moddiy va ma'naviy ne'matlar hamda xizmatlar iste'moli salmog'i va tarkibining qiymati bahosi hamda soliqlardan iborat. Ehtiyojni qondirish darajasiga qarab, moddiy ta'minlanganlik minimumi, ratsional va elitar iste'mol byudjetlari mavjud. Ular aholining quyi, o'rta va yuqori (juda yuqori) daromadli guruhlariga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, haqiqiy va me'yoriy byudjetlar ham mavjud. Me'yoriy byudjetlar daromadlar siyosatining ijtimoiy normativlaridan biridir.

Iste'mol byudjeti faqat aholi guruhlari uchun emas, balki mamlakat xududlari uchun ham belgilanishi mumkin. Bunda hisob-kitobning turli xillaridan foydalaniladi (3.2.2-rasm).



Manba: Abdurahimova S.A. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – T.: 2016

3.2.2-rasm. Iste'mol byudjetining hisob-kitob usullari

Iste'mol byudjeti yuzlab tovar (xizmat)larni o'z ichiga oladi, ammo hisob-kitoblarda, odatda, eng muhimlari (ovqatlanish, kiyim-kechak, poyabzal, sanitariya va gigena vositalari, dori-darmon, mebelg', idish-tovoq, madaniy mollar, uy-joy va

maishiy xizmat, transport, aloqa xizmati va h.k. lar) e'tiborga olinadi va ular minimum moddiy ta'minlanganlik byudjetiga kiritiladi.

Har bir davr bo'yicha aholi va ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy ta'minlanganlik minimumi mavjud. Bu minimum ob'ektiv miqdor bo'lib, ijtimoiy kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq. Moddiy ta'minlanganlik minimumi me'yoriy iste'mol byudjeti yordamida aniqlanadi. Iste'mol byudjeti hisob-kitob tavsifiga ega va ma'lum normativlarga asoslanadi. Me'yoriy byudjet moddalarining asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri hisoblanadi, ya'ni unda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari iste'moli me'yori, xizmat ko'rsatish normativi, ularni xarid qilish baholari inobatga olinadi.

Moddiy ta'minlanganlik minimumi byudjeti joriy vaqt uchun va istiqbolga mo'ljallab tuzilishi mumkin. U natural va pul shaklida ifodalanadi. Mehnatkashlar va ularning oilalari mini-mal ehtiyojlari moddiy va madaniy ne'matlar iste'moli darajasi va tarkibi qanday bo'lishi bu minimumni ta'minlaydigan daromadlar miqdorini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ishchi kuchini normal takror ishlab chiqarish uchun xizmatchi yoki dehqon oilasidagi balog'atga yetgan kishilarning energiya sarfini qoplash va qoniqarli hayot faoliyatini ta'minlash bo'yicha zarur bo'lgan fiziologik me'yor darajasida ovqatlanishi hamda kiyimbosh, poyabzal, ichki kiyimlar, gigiena vositalari bilan ta'minlanishi, kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati uchun haq to'lash, shuningdek, madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun minimal daromadga ega bo'lishi zarur.

Me'yoriy byudjetga asoslangan moddiy ta'minlanganlik minimumi ish haqini differentsiatsiyalashni prognozlashda asosiy elementlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ish haqining eng kam miqdori jamiyatda mavjud resurslarga bog'liq bo'lmasa, moddiy ta'minlanganlik minimumini ta'minlash uchun boshqa ijtimoiy iste'mol fondi, shaxsiy tomorqa xo'jaligi va shu kabi manbalardan foydalaniladi.

Me'yoriy iste'mol byudjeti son va yosh tarkibi turlicha bo'lgan yolg'iz kishilar hamda oilalilar uchun, aholining turli guruhlar, oilaning ishlamaydigan a'zolari, mamlakatning turli xududlari uchun ishlab chiqiladi. Mamlakat rayonlari

bo'yicha me'yoriy byudjetlar turmush qiymatidagi farqni aniqlash, xududiy koeffitsientni asoslashga yordam beradi. Moddiy ta'minlanganlik minimumiga erishish yo'llarini asoslashda ularni qoplash uchun eng kam ish haqi va pensiyalar, nominal hamda real ish haqini oshirish, ijtimoiy transfertlar, shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olinadigan daromadni ko'paytirish va shu kabi manbalarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Biroq oilalarda ish bilan bandlar va boqimandalarning turli nisbatlari yuzaga keladi, bu esa oila ta'minlanishiga ta'sir etadi. Kam ta'minlanganlik muammosini hal etish uchun ish haqini muntazam oshirib borish, oilada bandlikni oshirish, pensiya ta'minotini yaxshilash, soliq bo'yicha imtiyozlar belgilash, tovar va xizmat haqlarini kamaytirish, bolalarni boqish uchun davlat tomonidan beriladigan nafaqalar miqdorini ko'paytirish, yolg'iz qariyalarga ko'maklashish va shu kabilar lozim.

Oilaning yashash minimumini shakllantirishda yolg'iz kishilar va oilalilarning iste'mol xarajatlari darajasiga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Oiladagilar soni oshib borishi bilan iste'mol xarajatlari pasayib boradi. Masalan, agar ikki kishi birgalikda yashasa, ularning jon boshiga xarajatlari yolg'iz yashovchining xarajatlaridan ikki barobar kam bo'ladi. Bu uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan tovarlarga ham taallukli. Buyumlar bir boladan boshqasiga o'tishi ham hisobga olinadi ayniqsa, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu munosabat bilan daromadlari turli darajada bo'lgan oilalarda birgalikda yashash evaziga xarajatlarning kamayishi koeffitsienti hisoblab chiqilgan. Masalan, balog'atga yetgan to'rtta odam yashaydigan oilada iste'mol xarajatlari 10 foizga kamayadi, oilada yashovchi pensioner uchun yashash minimumi yolg'iz pensionernikidan 10-15 foiz past.

Aholi ehtiyojiga tabiiy-iqlimiy sharoitlar, joylashish xarakteri, milliy anhanalar ham ta'sir ko'rsatadi. Nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar xarajati uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanganlik va xizmat muddati me'yorlari asosidagi normativ usul yordamida aniqlanadi. Hisob-kitoblar tovarlar guruhi bo'yicha ishlab chiqiladi: garderob predmetlari: ust kiyim,

poyabzal va qokazolar; sanitariya gigena vositalari: dori-darmonlar; uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallangan tovarlar: mebel, elektr asboblari, avtomobil va h.k.

Uy-joy va kommunal xizmat xarajatlari ushbu xududdagi narxlar va tarif normativlariga qarab belgilanadi. Bunda soliqlar va majburiy to'lovlar xarajatlari ham hisobga olinadi.

Oilaning yashash minimumi byudjeti uning tarkibi va katta-kichikligiga qarab aniqlanishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, yashash minimumi ancha tor tuzilgan, unda faqat fiziologik minimumni ta'minlovchi me'yordan foydalanilgan va tamaki mahsulotlari, delikateslar, madaniy ehtiyojlar hisobga kiritilmagan, nooziq-ovqat tovarlari, xizmatlar, soliklar esa yetarli darajada hisobga olinmagan. Yashash minimumidan farkdi o'laroq, minimal iste'mol byudjeti ana shu xarajatlarni to'la hisobga oladi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, minimal iste'mol byudjeti yashash minimumi byudjetidan 3-4 baravar ortiq.

Minimal iste'mol byudjeti va yashash minimumi byudjeti bilan birga ratsional iste'mol byudjeti ham hisoblanadi. Uning yordamida ilmiy asoslangan ratsional me'yorlarga muvofiq ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan daromadning tarkibi va miqdori aniklanadi. Ratsional byudjet va iste'molning ratsional me'yori insonning oqilona ehtiyojlarini to'la qondirish tamoyili asosiga quriladi. Iste'molning real me'yoriga muvofiq bo'lgan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasiga yetish mamlakat miqyosida o'rta tabaqani shakllantirish vazifasini hal etishga yordam beradi.

Barcha aholi uchun iste'molni ratsional darajaga yetkazish jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin: Birinchisi - ratsional byujetga mos keluvchi daromadni va iste'molni o'rtacha darajasiga yetish; ikkinchisi - jamiyat har bir ahzosining ratsional iste'molini ta'minlash. Bu ikki bosqichni farqlash iqqisodiy mazmunga ega. U daromadlar va iste'molning ba'zi elementlari harakati tendentsiyasidagi tub o'zgarishlar va iste'mol tuzilmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Ammo ratsional iste'mol byudjetining mohiyatini optimallashtirib bo'lmaydi. U faqat prognozlashning dastlabki punktini tashkil etadi. Ratsional

iste'mol va ta'minot me'yorlari shunday vositaki, ular yordamida xalq farovonligini oshirishning ustivor yo'nalishlarini miqdor va sifat jixatidan ifodalash; ijtimoiy muammolarni yechish, turmush darajasi kontseptsiyasini ishlab chiqish mumkin.

Iste'mol savati — insonning salomatligini saqlash va uning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsu-lotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir. Aslida, iste'mol savati uchta savatdan iborat: oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmat savatchalari. Iste'mol savati kamida 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladi. Iste'mol savatida oziq-ovqat savati muhim o'rin tutadi.

Minimal iste'mol savatini ishga layoqatli yoshdagi aholi uchun shakllantirishga asos qilib, ishlayotgan erkak kishiga sutkada 2720 kkal. oqsil iste'molini - 88,7 (shu jumladan, hayvonniki - 31,5) vauglevodlarni 4412 kkal. sutkani ta'minlovchi sifatida oziq-ovqatlar to'plami belgilab olinadi.

Yashash minimumi ko'rsatkichlari davlat tomonidan ijtimoiy siyosat yuritishda qo'llaniladi xususan, aholining turmush darajasini baholash uchun yashash minimumidan past, teng va yuqori daromadli aholi salmog'i aniqlanadi, shunga ko'ra, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun aniq yetib boradigan manzilli ijtimoiy yordam uchun negiz bo'lib xizmat qiladi, eng kam ish haqi va pensiyalarni asoslashda foydalaniladi, shuningdek, ushbu ko'rsatkich kam ta'minlanganlik mezonidir.

Xulosa qilib aytganda, iste'mol savati va yashash minimumi insonning hayot faoliyatini to'laroq tahriflash imkonini beradi va aholi turmush darajasi hamda daromadlar ko'rsatkichlari tizimining tarkibiy qismidir. Aholi turmush darajasi kishilar ehtiyojining tarkibi va rivojlanishi bilan bog'liq va shu bilan birga, ularni qanoatlantirish uchun foydalaniladigan turmush ne'matlari va xizmatlar miqdori hamda sifati bilan aloqador bo'lib, bu jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzilishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, turmush darajasi faqat joriy ishlab chiqarish bilangina emas, balki milliy boylik va kishilarning shaxsiy to'plagan mulki miqdori bilan ham bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining farovonlik darajasini ifodalashda «turmush darajasi», «xalq farovonligi», «turmush faoliyati xavfsizligi», «turmush tarzi», «mehnat faoliyati sifati», «turmush sifati» kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Bahzan turli atamalar bir mazmunni anglatga, boshqa hollarda ular o'rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezmlarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini ham aytib o'tish lozim.

Turmush darajasi – bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik ko'lam va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Turmush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

Aholi daromadlari – aholi yoki oila ahzolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab topilgan pul yoki natura shaklidagi mablag'lar yig'indisidir. Aholining talab-ehtiyojlar darajasi va tarkibiy daromadlar va miqdorlariga bevosita bog'liqdir.

Iste'mol savati – insonning salomatligini saqlash va uning hayot-faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir.

Aholining turmush darajasini quyidagi to'rt ko'rsatkich bilan ajratish mumkin:

- to'q turmush darajasi - insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;

- normal daraja - insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish;

- kambag'allik - mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;

- qashshoqlik - iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatiga beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.

Yuqorida o'rganilgan nazariy jihatlar va amalga oshirilgan tahlillar natijasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Turmush darajasi turli sabablarga bog'liq bo'lgan ko'pqirrali hodisadir. Har bir insonning turmush darajasi havo va suv muhiti, uy-joy, maishiy va ishlab chiqarish sharoitlari, iste'mol tovarlarining sifati va hajmidan boshlab, to umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat, shuningdek siyosiy institutlarning ahvoligacha bo'lgan qator tabiiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Ularning eng diqqatga sazovorlari – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy soha va fan-texnik taraqqiyot, shuningdek ekologiyaga (atrof-muhitga) ta'sir etuvchi omillardir.

2. Ta'kidlash joizki, barcha ko'rsatkichlar va ularning tasniflari o'rtasida mustahkam aloqa mavjud. Turmush darajasining o'zgarishi turli omillar ta'sirida yuz beradi, ularni oqilona boshqarish aholining turmush darajasini tartibga solib borish imkonini beradi.

Omillarning ta'siri tabiiy-iqlimiy sharoitlar va zaxiralarning (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma'naviy zaxiralar) mavjudligiga (yo'qligiga) qarab kuchayishi (susayishi) mumkin. Ammo bunda to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud emas. Masalan, Yaponiya, Shveytsariya kabi davlatlarda tabiiy zaxiralarning kam bo'lishiga qaramay, ular eng boy davlatlardan sanaladi.

Farovonlikning yuqori darajasi aholisi ko'p bo'lgan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) bilan bir qatorda kam aholili davlatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveytsariya) kuzatiladi. Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston kabi davlatlarning iqlimi deyarli bir-biriga yaqin bo'lsada, ulardagi aholining turmush darajasi bir-biridan tubdan farq qiladi.

3. Turmush darajasini yaxshilashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu umr ko'rish davomiyligidir. Insonning ko'p yoki qisqa umr ko'rishining uning salomatligi, psixologik holatlari kabilar bilan bog'liq. Shu jihatdan aholi o'rtasida sog'lom turmush

tarzini yanada kuchaytirish, ayniqsa onalar va bolalar salomatligini yanada yaxshilash choralarini ko'rish lozim.

4. Ma'lumki, aholi daromadlarini hisoblashda turmush darajasi indeksini hisoblash muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda turmush darajasining quyidagi komponentlarining jon boshiga to'g'ri keladigan indeksi aniqlanadi: ovqatlanish (to'yimlilik va oqsillarga boyligi bo'yicha), uy mulklari fondi (solishtirma narxlarda), uy-joy (qulayliklarni qo'shgandagi maydoni), salomatlik va sog'liqni saqlash (umr ko'rish davri dinamikasi, o'lim darajasi, sog'liqni saqlash uchun xarajatlar bo'yicha), ta'lim va madaniyat (ma'lumot olish o'rinlari, ta'lim va madaniyat uchun ajratiladigan xarajatlar bo'yicha), aholiga xizmat ko'rsatish (solishtirma narxlarda) va hokazo. So'ng oila byudjetlari statistikasi bo'yicha ehtiyojlarning elastiklik koeffitsienti aniqlanadi. Elastiklikka teskari kattalik turmush darajasining berilgan komponenti bo'yicha ehtiyojlarning nisbiy qathiyligining o'lchovi sifatida qabul qilinadi. Shundan keyin har bir komponent uchun ehtiyojlarning umumiy salmog'ida berilgan ehtiyojning ulushini ko'rsatuvchi koeffitsient topiladi. Mazkur koeffitsientlarning ijobiy bo'lishi albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Aholining ma'lumot darajasi, kasbiy darajasi yuqoriligi, iqtisodiy faolligi, tadbirkorligi, ijtimoiy munosabatlarni mamlakatda turmush darajasi yuqori bo'lishini ta'minlovchi sabablar sifatida ta'kidlanadi. Masalan, Yaponiya erishgan iqtisodiy taraqqiyot, birinchi navbatda, ta'lim tizimi, millatning mehnatsevarligi, faolligi, korxonalarda mehnatning oqilona tashkil etilishi bilan bog'lanadi.

Aholining ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash, ishlab chiqarishda mehnatga haq to'lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo'llashga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Malakali xodimlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagi belgilangan vazifalarni amalga oshirish, eng avvalo, aholi daromadlarining yuksalishiga olib boradi, qolaversa turmush tarzini yaxshilanishiga xizmat qiladi. Natijada, kishilarning mehnatdan manfaatdorligi ortadi va pul daromadlari ko'payadi. Pirovardida nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz aholisining turmush sifati yaxshilanib, ijtimoiy farovonligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., - T.: O'zbekiston, 2001 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi qonuniga sharhlar. -Toshkent.: “Sharq”, 2000. – 384 b.
3. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi ma'ruzasi, // Xalq so'zi, 2016 yil 16 yanvar.
4. Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi ma'ruzasi, // Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.
5. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari // I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

8. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2005 yil 28 yanvar.
9. Karimov I.A. «Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish - taraqqiyot omili. Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutq, 2004 yil 29 yanvar.
10. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., "O'zbekiston", 1995.
11. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., "O'zbekiston", 1993.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent: 2007. 19 mart, PF-3864-son.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent: 2007. 6 aprel, PK-616-son.
14. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (darslik) T.; "O'qituvchi", 2001. 28-65 betlar.
15. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" (o'quv qo'llanma) T.:2004.
16. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Akbarov A.M. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi – T. TDIU: 2005.
17. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti" (Darslik) T.: 2009 yil.
18. Abdurahimova S.A. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – T.: 2015,– 107 bet.
19. Bakieva I.A. "Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti" *ma'ruzalar matni*. Toshkent – 2013.

20. Zaynutdinov Sh.N., va boshqalar «Iqtisodiyot asoslari» T., Moliya, 2001
21. Shodmonov Sh., Alimov R., Sheraliev J. «Iqtisodiyot nazariyasi». T.: Moliya, 2000.
22. Деньги, кредит, банки. Учебник под. Ред. В.В.Иванова, В.И.Соколова. М.; 2004.
23. www.referat.uz sayti.
24. www.lex.uz
25. www.minfin.ru
26. www.mf.uz
27. www.byudjet.uz
28. www.stat.uz
29. www.uza.uz
30. www.namangan.uz